

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

AZATGUL TASHMATOVA

IJROCHILIK SAN‘ATI TARIXI

(H.Rahimov asarlari misolida)

Oliy ta‘lim muassasalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Ta‘lim yonalishi: 5150700 - Cholg‘u ijrochiligi

Fan nomi: ijrochilik san‘ati tarixi

“Musiqqa” nashriyoti
Toshkent
2018

KBK: 84(50‘)6
T 24
UO‘K: 821.512

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2018 yil 27 martdagi 274-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi

Mas‘ul muharrir:

A.MANSUROV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori

Taqrizchilar:

A.Q.LUTFULLAYEV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori

R.ABDULLAYEV – O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi, professor

Mazkur “Ijrochilik san‘ati tarixi” (Habibulla Rahimov asarlari misolida) o‘quv qo‘llanmasi 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan va oliy o‘quv yurtlarining Davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ravishda o‘quv fani dasturi asosida yaratilgan. Unda mahoratli zamonaviy kompozitorning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining katta va kichik tarkiblari uchun yaratilgan asarlari tahlil etilgan.

Настоящее учебное пособие «История исполнительского искусства (на примере произведений Хабибуллы Рахимова)» предназначено для студентов, обучающихся по направлению бакалавриата 5150700 – «Инструментальное исполнительство» (народные инструменты) и разработано в соответствии с Государственными образовательными стандартами для высших учебных заведений, учебным планом и программой курса. В нем рассмотрены оригинальные сочинения выдающегося современного композитора для большого и малого составов оркестра узбекских народных инструментов.

This textbook “History of Performing Art” is intended for bachelor degree students of the direction 5150700 – instrumental performance (folk instruments) and made in accordance with State Education Standard for Higher education, curriculum course and education plan. This textbook describes original compositions of modern outstanding composer for big and small orchestra of uzbek folk instruments.

ISBN 978-9943-5090-7-8

© “Musiq” nashriyoti, 2018
© A.Ташматова, 2018

KIRISH

O‘zbekiston san’at arbobi, professor, mahoratli kompozitor Habibulla Rahimovning o‘ziga xos va qiziqarli yo‘nalishlaridan biri, bu o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratgan asarlaridir. G‘ijjakchi-sozanda sifatida ma'lumotga ega bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi san’atining chuqur bilimdoni Habibulla Rahimov o‘zbek cholg‘u ijrochiliginig o‘ziga xos xususiyatlarini o‘ta nozik va tembr jihatdan chuqur tushunib yetganligi tufayli u doimiy tarzda xalq cholg‘ulari orkestriga murojaat etadi va ijodiy ilhom bilan yondashadi. Kompozitorning xalq cholg‘ulari orkestrlari uchun yaratgan asarlari o‘ziga xosligi, betakrorligi, yorqin musiqiy fikrlar va ularning original tarzda rivojlanishi hamda musiqa san’atida tinmay yangi tembr buyoqlari va ijro usullarini izlab topishi bilan ajralib turadi.

H.Rahimov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari uchun ko‘plab turli janr va shakldagi musiqiy asarlar yaratdi, xalq kuy-qo‘shiqlarini qayta ishladi, xorijiy kompozitorlar asarlarini orkestr uchun moslashtirdi. Mustaqillik kompozitor ijodida sifat jihatdan yangi davr bo‘ldi. Zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy va estetik talablariga hushyorlik bilan javob qaytaradigan kompozitor zamonaviy san’atning progressiv yo‘nalishini aks ettiruvchi yangi maqsad va g‘oyalarga murojaat etadi.

Bu eng avvalo mustaqil O‘zbekistonning ko‘p qirrali hayoti, ona tabiati, atrof muhitni aks ettiruvchi yangi ifodaviy vositalarni faol izlash hamda Sharq xalqlari bilan jumladan Yaponiya, Koreya, arab va boshqa mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni qayta tiklashdir.

H.Rahimovning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratgan asarlarida Sharq mamlakatlari bilan bog‘liq mavzular muhim o‘rin egallaydi. Kompozitorning e’tiborga loyiq tomoni bu Xitoy, Yaponiya, Koreya, Eron, Afg‘on, Hind musiqalariga murojaat etishidir. Ushbu tendensiya badiiy jihatdan eng qiziqarli va istiqbolli yo‘nalishdir. Kompozitor Sharq mamlakatlari musiqa san’atiga murojaat etarkan, ularda cheksiz ohang, usul, lad, garmoniya va tembr imkoniyatlarini kashf etadi. Bu madaniyatlarning o‘zaro ijodiy tasiri natijasida ular ikki tomonlama boyidi. Bir tomondan o‘zbek musiqasi Sharq musiqasining ifodaviy vositalarini eshitib o‘ziga singdiradi. Ikkinchi tomondan o‘zbek musiqasi ushbu asarlar tovush olamining yangilanishiga ta’sir etadi. Arirang, Yaponcha raqs, Arabcha raqs, Arirang jozibalari va Arabcha poema-konsert asarlari shular jumlasidandir.

H.Rahimovning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratgan asarlarida xarakterli xususiyatlaridan yana biri XXI asr boshlaridagi kamer tarkib uchun programmali asarlar yaratishga intilishi bo‘ldi. Bu mustaqillik yillarida tashkil etilgan xalq cholg‘ulari kamer orkestrlari, xususan “So‘g‘diyona” jamoasining dasturini maqsadga muvofiq yangilash va kengaytirishdan iborat edi. Kompozitorning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun har bir asari yangi syujet

hamda aniq programma asosida yaratilgan. Bu borada turli ko‘rinishdagi asarlar mazmuni bo‘yicha kompozitorning fikrlash doirasi juda boy va rang-barang ekanligidan dalolatdir.

HABIBULLA RAHIMOVNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI KATTA TARKIBI UCHUN YARATGAN ASARLARI

O‘zbek xalq kuyi “Qo‘shyor”(Dutor sabosi)ni muallif 2000-yilda dutor-alt cholg‘usi uchun yaratgan. Ushbu asarning o‘zbek xalq cholg‘ulari katta orkestri hamda kamer orkestr uchun moslashtirilgan namunalari ham mavjud. U uch qismli shaklda yozilgan. O‘rta registrda qo‘shyor imkoniyatlarini yoritib beruvchi dutor-alt yakkanavoz cholg‘u sifatida bekorga tanlanmagan. Chunki cholg‘u ijrochiligi tabiatidan kelib chiqqan holda yakkanavoz, ya‘ni dutor-alt mavzusi aynan kvarta va sekunda ohangdosh tovushlar birikmasini maromiga yetkazib ijro eta olish imkoniyatiga ega.

Asarning boshlang‘ich qismida yakkanavoz dutor-alt va orkestr guruhlarining qiyoslanishi o‘ziga xos tarzda yangraydi. Orkestrning *f* nyuansidagi uch taktli harakatchan kirish qismidan so‘ng dutor-alt *mp* nyuansida ijro eta boshlaydi. Uning solosi orkestr cholg‘ularining, avval g‘ijjaklar guruhining *pizzicatosi*, so‘ngra dutor va boshqa cholg‘ularning savol-javob tariqasidagi ijrosi bilan galma-gal yangraydi:

The musical score for the first part of the piece is written for Solo Dutor and five string parts (G'ijjak I, II, alt, and bas). The Solo Dutor part is in the treble clef, and the string parts are in various clefs (treble and bass). The key signature is one flat (B-flat), and the time signature is 8/8. The Solo Dutor part starts with a melodic line, and the string parts provide accompaniment with pizzicato (pizz.) and piano (p) dynamics. The Solo Dutor part is marked with *mp* (mezzo-piano) dynamics.

Mavzuning musiqiy rivojida kompozitor “aks-sado” tariqasida cholg‘ularning birin-ketin ijro etilishini mohirona tarzda qo‘llaydi va uni yanada rivojlantirish uchun *tuttidan* foydalangan holda 5-raqamdan boshlanuvchi o‘rta qismga olib keladi:

The musical score for the second part of the piece is written for Solo Dutor and six string parts (G'ijjak I, II, alt, bas, and k.b.). The Solo Dutor part is in the treble clef, and the string parts are in various clefs (treble and bass). The key signature is one flat (B-flat), and the time signature is 8/8. The Solo Dutor part starts with a melodic line, and the string parts provide accompaniment with arco (arco) and piano (p) dynamics. The Solo Dutor part is marked with *mp* (mezzo-piano) dynamics.

Asarda nafaqat sur'at, balki o'lchov (2/4), faktura va ohang xarakteri o'zgaradi. Shaxdam doyra usuli va yakkanavoz dutor-altning ikki ovozli ijrosi boshlanadi va ularning jurnavozligi davom etadi. 8-raqamda *tuttida* kuy rivoji faollashadi, H.Rahimov kuyni oktava oralig'ida takrorlanishini qo'llaydi, *tutti* bilan yakkanavoz ijrosini qiyoslagan holda unison tembr tarovatini kuchaytiradi. 10-raqam *Meno mossoda* o'lchov o'zgaradi (6/8) va rivojlanishning yangi davri boshlanadi. Bu qismda kompozitor bayon etish turini o'zgartiradi. Yakkanavoz cholg'u dutor-altning jo'shqin ikki ovozli ijrosi bilan bir yo'nalishda jo'rnavozlik vazifasi ham ko'chayadi. Ushbu qism keng namoyon etilgan. Kompozitor orkestrning rang-barang bo'yoqlari va yozuv uslubini topganligidan faxrlanib, cholg'ularning yorqin mohirona ijrosini chiroyli uyg'unlashuvida namoyon etadi:

The image shows a musical score for an ensemble. The instruments listed on the left are: Qashqar rubob, Afg'on rubob, Tanbur, Dutor bas, Dutor k.b., Uchb., Doira, and Solo Dutor. The score is written in 6/8 time and consists of eight staves. The Solo Dutor part is marked with a forte (*p*) dynamic and includes trills (*tr*) and trills with grace notes (*tr* with a wavy line). The other instruments also have a forte (*p*) dynamic marking. The score shows a rhythmic pattern of eighth notes and rests, with some instruments playing in unison and others in harmony.

16-raqam *Piu mossoda* boshlanadi, solo bilan *tutti* ketma-ketligida asosiy tematik mavzu yangitdan boshlanadi. Shuni ta'kidlash lozim-ki, bu yerda cholg'u guruhi emas, balki butun orkestr jalb etilgan. Musiqiy rivojlanish tabiiy holda yakkanavozning kichik kadensiyasiga olib keladi (17-raqam). Qizig'i shunda-ki, yakkanavoz dutor-altning kadensiyasi tabiiy holda orkestr kadensiyasiga o'tadi va *tutti* qo'llanilib, yorqin kulminatsiyaga erishiladi. 18-raqamdan kuchayishning qaytishiga olib keluvchi koda boshlanadi. Faktura tiniqlashadi va yangi faol harakatning tiklanishi asarning asosiy g'oyasini ijobiy tarzda yakunlanishiga imkon yaratadi.

“Qo'shtor” asari xalq ijrochilik an'anasi, ya'ni xalq sozandalarining improvizatsiyaga (badihago'ylikka) oid san'atini orkestr guruhlari va orkestrda qo'llanganligi bilan o'zgacha tarovat kashf etadi. Qadimiy xalq cholg'ulari ansambllari ijrochiligini tahlil qilib, xalq cholg'ulari orkestrlari tarovatini boyitish maqsadida H.Rahimov orkestr ijrochiligining kelgusi rivoji uchun bebaho ijro usullarini izlab topadi.

H.Rahimovning qashqar rubobi va orkestr uchun 2000-yilda yozgan “Arabcha poema-konsert”i mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar sirasini yanada kengaytiradi. Ushbu asarning o‘ziga xos xususiyati shundan iborat-ki, bunda kompozitor konsert va poema janrini uyg‘unlashtirgan. Poema va konsert janri o‘zbek musiqa san’atida o‘ta xarakterli turkumlardan bo‘lib, kompozitorlar ularga hamisha ijodiy jarayonga moyil janrlar sifatida yondashganlar. Ushbu janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bir asarda birlashtirgan holda H.Rahimov o‘zining shaxsiy talqinini topib, o‘z asarining mazmunini yoritishga harakat qiladi.

Poema aslida musiqiy asar sifatida erkin musiqiy rivojlanishga ega bo‘lganligini hisobga olib kompozitor arab bastakori Riyod Sanbotiy kuylaridan olingan lavhalarni turli ifodaviy vositalar yordamida yoritishga harakat qiladi. Ushbu asarda yakkanavoz qashqar rubobi va uning orkestr bilan muloqoti berilgan. Kompozitor mohirona qismlarni ko‘p qo‘llab, ularni yakkanavozga kichik kadensiyalarda, shuningdek reprizadan oldin keladigan kengaytirilgan kadensiyada namoyon etishga imkon yaratadi.

Poema va konsert janriga asoslangan holda H.Rahimov o‘z ijodida shakllangan, yorqin va o‘ziga xos asar yaratishga erishadi. Ushbu asarda orkestr ovozlari gorizontal yo‘nalishdagi unison hamda vertikal yo‘nalishdagi garmoniya va tovushlarning polifonik birikmasida o‘ziga xos tarzda joylashgan. Musiqiy mavzuning bayon etilishi va rivoji ovozlarning majmuining takrorlanishiga asoslangan bo‘lib, asosiy vazifani torli-chertma va torli-kamonli cholg‘ular guruhi amalga oshiradi:


Moderato

The image shows a musical score for an orchestra and solo instruments. The tempo is marked 'Moderato'. The score includes parts for:

- Chang
- Qonun
- Rubob prima
- Qashqar rubob
- Afge'on rubob
- Tanbur
- Dutor bas
- Dutor k.b.
- Violin I
- G'ijjak I, II
- G'ijjak alt
- G'ijjak bas
- G'ijjak k.b.

 The score is written in 2/4 time and includes dynamic markings such as 'f' (forte) and 'trmn' (trumpet). The notation includes various rhythmic patterns and melodic lines for each instrument.

Orkestrning ko‘povozliligi akustik-oberton tovushlari, zich va to‘liq hajmdagi tembrlar rang-barangligini namoyish etishga qaratilgan. Qashqar rubob partiyasi mustaqil xarakterga ega bo‘lib, mahirona ijroning naqshinkor tarannumiga qaratilgan:



Ushbu asar shaklining tuzilishi mavzuning universal variantli-variatsiya qonuniyatlariga asoslangan holda yaratilgan. Sonata shaklida yozilgan Poema-konsertning qismlari orasida simmetriya mavjud bo‘lib, badiiy jihatdan shakl muvozanatiga va tugal butunlikka ega. Kompozitor musiqiy rivojlanish yakkanavoz o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida innovatsion uslub bo‘lgan bir vaqtning o‘zida ham kulminatsiya vazifasini bajaruvchi kadensiyaga olib keladi. Unda yakkanavozdan tashqari orkestr tovushlari ham yangraydi:

Yakkanavoz kadensiyasida qashqar rubobining ijro mahoratini jonlashtirish maqsadida kompozitor dialog elementlarini kiritadi. Rubob cholg‘usining o‘ziga xos tembri boshqa cholg‘ular uyg‘unligida yanada jozibaroq yangraydi. 16-raqamda repriza boshlanadi, unda yakkanavoz qashqar rubobi o‘z kadensiyasini yanada jonliroq, ya’ni *Allegro* sur’atida davom ettiradi:

Allegro

The musical score is arranged in a standard orchestral format with the following parts from top to bottom:

- Piccolo
- Nay I, II
- Oboe
- Clarinet in B \flat
- Chang
- Qonun
- Afq'on rubob
- Dutor
- Tanbur
- Dutor bas
- Dutor k.b.
- Piatti
- Qashqar rubob

Ushbu asarda mashhur arab bastakori Riyod Sanbotiy kuyi o'zgartirilib, u yanada emotsional mazmunga ega bo'ladi va yorqin, chiroyli ohanglarda yakunlanadi. Shunday qilib, poema va konsert janri sintezi asosida yaratilgan arabcha poema-konsert muvaffaqiyatli tarzda amalga oshiriladi. Kompozitor o'z mahoratidan kelib chiqib, monodik arab musiqasidan ko'povozli orkestr musiqasini yaratishga hamda mavzuni qayta ishlash orqali yakkanavoz va orkestr uchun rohatbaxsh asar yaratishga erishadi.

Ushbu asar shubhasiz konsert dasturlarining eng chiroyli namunasiga aylandi.

Serqirra kompozitor H.Rahimov 2001-yilda xalq cholg'ulari orkestri uchun yapon ladlari asosida original "**Yaponcha raqs**" miniatyurasini yaratadi va asosiy mavzu ijrosi uchun nayni tanlaydi. Ushbu cholg'u yakkanavozlik uchun bejizga tanlanmagan, chunki yaponlarda ham nay tembriga yaqin bo'lgan "shakuxachi" ("syakuxati") nomli damli cholg'u amaliyotda keng qo'llaniladi. Kompozitor yapon milliy koloritini ifoda etish uchun yapon cholg'u ijrochiligi madaniyatiga xos bo'lgan ijro uslublari, usullar va ifoda vositalaridan unumli foydalanadi. Asar variantli-variatsiya asosida tuzilgan muttasil rivojlanish shakliga ega. Ushbu miniatyurada H.Rahimov musiqiy rivojlanish va orkestr tovush ko'lamini asta-sekinlik bilan kuchaytirishga harakat qiladi. Asarda

kompozitor butun orkestrdan emas, balki dutor va g'ijjaklar oilasi hamda uch-burchak va kichik barabanlardan foydalanib, chiroyli jo'rnavozlik zamin tovushlarini yaratadi va uning ostida nayning ma'noli va kuychan solosi namoyon bo'ladi:



U chang va qonunda oktava unisonligida yangraydigan *pizzicato* bilan to'ldiriladi. Bu juda ta'sirchan tovushlar uyg'unligi bo'lib, yakkanavoz ijrosini yanada boyitadi. Asarning sakkizinchi taktida kompozitor mavzuning yangi variantini qo'llaydi. Uni nay va goboy oktava unisonligida ijro etadi, ikki taktli qo'shimcha partiyalarni chang va qonun oktava unisonligida ijro etadi, lekin talqin va zarblar nuqtai nazaridan yangi detallar paydo bo'ladi.

1-raqamda rivojlanishning yangi davri boshlanadi. Orkestrning butun tarkibi ijroga jalb etiladi. Mavzu bir muncha o'zgartirilgan ko'rinishda, ya'ni yangi variantda o'ta ko'lamlil darajada uch oktava unisonligida yog'och damlilar, g'ijjak I-II va g'ijjak-altlarda ijro etiladi. U to'liq garmoniyani hosil qiluvchi zich joylashgan vertikal akkordlar hisobiga juda chiroyli va tembr jihatdan boyitilgan tarzda namoyon bo'ladi:

Kompozitor musiqaning keyingi rivojida turli guruhlarni taqqoslash usullarini qo'llash orqali xilma-xil va yorqin koloritga erishadi. Musiqa qatlamlarining bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi natijasida yog'och damli va mizroblil cholg'ularning o'zgacha tembr bo'uyoqlarining jilvalanishi namoyon bo'ladi. O'ziga xos va betakror yapon koloritini ifoda etish uchun kompozitor fakturada xalq cholg'u ijrochiligi va impressionizm an'analaridan unumli foydalanadi. Asar to'liq ovoqli *f* orqali yuqori cho'qqini zabt etish taasurotiga va

asta-sekin pastga yoʻnaltirilgan harakat yordamida sadolashning sukunatga qorishib ketishini ifodalovchi moʻjazgina koda bilan yakunlanadi. Sadolanishning kodada bunday toʻxtamga kelishi ertak obrazining yoʻqolib qolganligi haqidagi taasurolni anglatadi. Shu vaqtning oʻzida yapon xalq bayrami, yaʼni Fudziyamu togʻiga chiqish va keyin pastga tushish hissi koʻz oldingizda namoyon boʻladi.

H.Rahimovning ushbu asari juda chiroyli va original tarzda yozilgan boʻlib, unda kompozitor yapon ladhari, yaʼni pentatonikadan unumli foydalangan. Xalq cholgʻulari orkestri tarkibiga fleyta, goboy va klarnet cholgʻularining kiritilishi hisobiga orkestr tembr yanada boyitilgan. U naqsh bezaklarining nozikligi hamda milliy koloritning mohirona tarzda ifodalanganligi bilan xuddi zargarlik taqinchoqlaridek nafis yaratilgan. Ushbu yapon miniatyurasida ifodaviy vositalar toʻlaligicha namoyon etilgan. Kompozitorning novatorligi asarning barcha parametrlarida, jumladan:

- Mavzu va uning rivoji;
- cholgʻulashtirish va uning tasviriy koʻrinishi;
- faktura xilma-xilligi va uning uygʻunlashuvi;
- tembrlar va orkestr guruhlarining keskin qiyoslanishi;
- tinglovchilar qabul qilishiga qulay boʻlishi uchun yoʻnaltirilgan musiqiy shaklning mayda qismlarga boʻlinishi orqali yaqqol koʻzga tashlanishi bilan namoyon boʻladi.

2001-yilda H.Rahimov “**Arabcha raqs**” nomli asarini arab mamlakatlari kuylarini yorqin intonatsiya va usullar bilan umumlashtirgan holda yaratadi. Asar mazmunini toʻlaqonli ifodalash maqsadida kompozitor orkestr tarkibiga fleyta, goboy, klarnet va fortepiano cholgʻularini kiritadi. Arab elchixonalarining birida oʻtkazilgan tadbirda serqirra ijodkor H.Rahimovga zamonaviy arab bastakori Riyod Sanbotiyning bir necha kuylari taqdim etiladi. U kuylar bilan batafsil tanishib chiqib, ularning ohanglarini ushbu asariga asos qilib oladi. Arabcha raqs kompozitorning betakror fantaziyasi orqali ohang rivoji, mavzuni variantli-variatsiyalar asosida oʻzgartirib yuborishi natijasida umuman boshqacha koʻrinishga ega boʻlganligi bilan ajralib turadi.

Mahoratli kompozitor H.Rahimovning intonatsiya, lad va ritm mahorati bilan birga, tembr va ohangga boyligini ham taʼkidlash lozim. Asar murakkab uch qismli shaklga ega. Unda chiroyli xalq siymolari bir-birlari bilan uygʻunlashib ketgan. Asar oʻtkir akkordlar va garmonik zamin asosida tuzilgan yorqin *tutti* bilan boshlanadi. Forte pianoning orkestr tarkibiga kiritilishi asar mazmunini chiroyli tembrlar bilan boyitibgina qolmay, balki aniq akkordlar ijrosi orqali garmoniyani ham yanada kuchaytiradi.

Asosiy mavzu fleyta-pikkolo va klarnetda ikki oktavali unisonda ifodalangan boʻlib, u oʻziga xos yuqori va past tembrlar hamohangligini yaratadi. Oʻtkir usullar mavzuning emotsional boʻyoqlarini taʼkidlaydi. Shuni qayd etish lozim-ki, ushbu asarda zarbli cholgʻular muhim vazifani bajaradi. Kompozitor

jadallashib boruvchi ritmik tuzilish orqali dinamik rivojlanishga erishadi. Arab cholgʻu madaniyatiga xos ritmik polifoniya muhim ifodaviy ahamiyatga ega, ayniqsa 3-4 kishidan iborat boʻlgan kichik cholgʻu ansambli ham oʻz ijrosida polifoniya elementlarini qoʻllaydi.

H.Rahimov zarbli cholgʻulardan, aynan uchburchak va barabanni arab cholgʻu musiqasida xalq-poetik obrazlarini ifodalash uchun qoʻllaydi. Ularda zarbli cholgʻularda joʻrnazozlik, koʻpincha ritmik tarkibning primitiv koʻrinishi boʻlgan qarsak chalish, oyoqda tepkilash orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu elementar ritmik tuzilishni qoʻllagan holda H.Rahimov juda yorqin musiqiy ifodaga erishadi:

Allegro moderato

The musical score is for a 12-piece ensemble. The tempo is marked "Allegro moderato". The score is in 2/4 time and B-flat major. The instruments listed are: Fleyta yoki Nay I, Nay II, Goboy, Qo'shnay, Clarinet in Bb, Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor, Dutor bas, T-lo T-no, Doyra, Piatti, and Piano. The score shows a complex rhythmic pattern with many eighth and sixteenth notes. A section marked with a double bar line and a repeat sign (⌘) begins in the fourth measure.

1-raqamda chang va qonunda oktava unisonligida yangi mavzu paydo boʻladi. U oʻrta registrda bayon etilgan boʻlib, asosiy mavzudan keskin farq

qiladi. Intensiv rivojlanish 16 talik triollardan tashkil topgan naqshinkor ohanglar chiroyli kulminatsiyaga olib keladi:

4-raqamda chang va qonunda quyi registrda juda jo‘shqin va ifodali yangi mavzu paydo bo‘ladi. Ushbu mavzuning intensiv rivojlanishi uchun turli cholg‘ular mavzuning kichik elementlari bilan uning ifodaliligini kuchaytiradi.

Asar boshlang‘ich qismining qaytarilishi o‘ziga xos hoshiya hosil qilib, asarning yakunlanganligidan dalolat beradi.

“Oydin kecha” asari 2001-yilda xitoy xalq kuyi asosida yozilgan. U cholg‘ular koloritining nozikligi va har bir qismning nafis ishlanganligi, orkestr yozuvining nazokatligi bilan ajralib turadi. Asarning o‘rta qismi rivojlanadigan turdagi uch qisimli shaklga ega. Bir mavzu asosida yaratilgan bo‘lishiga qaramay ichki yaxlitligi bilan ajralib turadi. Pyesa figurali passajlarga asoslangan nay-pikkoloning mahoratli solosi bilan boshlanadi:

Chang va rubob-primalardagi yengil *pizzicato* nayning yorqin, tiniq ohangini qo‘llab turadi. Oydin kecha manzarasini yorituvchi, oy shulasi kabi jilvakor chang va qonun ijrosi quyi registrdarga tushib beshinchi taktdan g‘ijak-bas va g‘ijak-kontrabaslarda unison tarzda ijro etiladigan lirik xitoy mavzusiga olib keladi:

Kuy qo‘shnay, prima, qashqar va afg‘on ruboblari hamda dutor-baslarda rivojlanib oktava unisonligida ijro etiladi. Ushbu xalq kuyi keyingi mavzularda ham paydo bo‘lib, keng ko‘lamli, chiroyli ohangli kuyni hosil qiladi:

This musical score is for a 4/4 piece. It features eight staves: Qo'shnay (melody), Chang (pizzicato), Qonun (pizzicato), Rubob prima (melody), Qashqar rubob (melody), Afg'on rubob (melody), Dutor (chords), and Dutor bas (melody). The tempo is marked *mf*. The Chang and Qonun parts feature a *pizz.* marking and a *f* dynamic. The Rubob prima part includes a sixteenth-note figure with a '6' marking. The Dutor part consists of sustained chords.

Rubob-primada takrorlanadigan changdagi *pizzicato* usuli hamda chang va qonunda ijro etiladigan yengil sirg‘anma *glissando*, arpedjio akkordlari juda chiroyli yozilgan. 3-raqamda torli-chertma cholg‘ularda keng ko‘lamda rivojlangan kuy paydo bo‘ladi va uning varianti 4-raqamda nay-pikkolo, nay, qo‘shnay va qonunda yangraydi. Bunday temblarning uyg‘unlashuvi orkestrning betakror bo‘yoqlarini yaratadi. Asarning kelgusi rivoji “Oydin kecha” manzarasini yaratuvchi cholg‘ular hamda ularning guruhlari yordamida chiroyli ohanglar dialogi bilan bog‘liqdir:

This musical score is for a 4/4 piece. It features six staves: Chang (pizzicato), Qonun (pizzicato), T-no (melody), G'ijjak I (melody), G'ijjak II (melody), and G'ijjak alt (melody). The tempo is marked *mf*. The Chang and Qonun parts feature a *pizz.* marking and a *f* dynamic. The T-no part features a melody with a '5' marking. The G'ijjak parts feature a melody with a '6' marking. The score includes a key signature change from one sharp to two sharps and a time signature change from 4/4 to 3/4.

Rivojlov qismida nay pikkoloda yangraydigan boshlang‘ich mavzu qayta paydo bo‘ladi va pyesa g‘ijjak-bas va g‘ijjak-kotrabsalarda yangraydigan xitoy

xalq kuyi bilan yakunlanadi. “Oydin kecha” asari orkestrning tembr imkoniyatlari, alohida cholgʻular va cholgʻu guruhlarining qoʻllanilishi bilan original tarzda ishlangan. Kompozitor asarda *tuttini* qoʻllamaydi, balki oydin kecha manzarasini ifodalash uchun kamer ansanbl ijrosidan foydalanadi. Pyesada orkestrning kamer ijro xususiyatlarini ochish uchun kompozitor ifodaviy vositalarning improvizatsion va innovatsion gʻoyalaridan foydalangan.

“Arirang” (2001) asari Koreyaning koʻpgina viloyatlari va undan tashqarida keng tarqalgan koreys xalq kuylarining bir variantidir. Pentatonika ladida koreys ohanglariga xos 3/4 oʻlchovida fantaziya sifatida yozilgan “Arirang”ning 100 dan ortiq turlari mavjud boʻlib, H.Rahimov eng koʻp tarqalgan kuy variantlarini pyesaga asos qilib oladi. Kompozitor kuy qismlarini aniq belgilab, ularni taqqoslab, asarni oʻziga xos va yanada ifodali yangrashiga erishadi. Asar tersiya oraligʻida avval yuqoriga va soʻngra quyiga yoʻnaltirilgan, yaʼni Yumaloq tarzda yakunlanuvchi, kirish qismi kuy boʻlagi bilan boshlanagan. Ushbu kirish qismi kuyi oʻziga xos boʻlib, kompozitor shu kuy tarovati orqali musiqaning monodik tabiatini taʼkidlagan holda asarni boshlaydi. Kuy yuqori registrda nay, qoʻshnay, qashqar rubobi, chang, qonun va gʻijjak I-II larda yorqin va tiniq tembrlarda ijro etiladi. Bunday ohanglar tinglovchilarni bir zumda oʻziga jalb etib, asarni idroklashga yordam beradi. Uchinchi taktdan kuy oʻrta registrga oʻtadi, shu tariqa aks-sado sifatida turli variantlarda takrorlanadi. Shu bilan birga kuy baland togʻdan pastga tushayotgan tasavvurni hosil qiladi:

Allegro Moderato

The musical score is written for a chamber orchestra and includes the following instruments and parts:

- Fleyta (Flute)
- Nay (Reed)
- Goboy (Clarinet)
- Qo'shnay (Clarinet)
- Clarinet in Bb
- Chang
- Qonun
- Rubob prima
- Qashqar rubob
- Afg'on rubob
- Tanbur
- Dutor
- Dutor bas

The score is in 3/4 time and features a variety of musical notations, including dynamics (e.g., *f*), articulation (e.g., *tr*), and phrasing. The tempo is marked **Allegro Moderato**. The score is arranged in a system with multiple staves, each corresponding to an instrument.

To‘qqizinchi taktdan boshlab, qo‘shiqning asosiy qismi qo‘shnay hamda g‘ijjak I-II va g‘ijjak-altlarda yangraydi. Chang va qonun birinchi mavzudan sakkiztalik notalar orqali vujudga kelgan naqshinkor ohanglar yordamida jo‘rnovozlik vazifasini bajaradi. Zarbli cholg‘ular baraban va doyra taktning kuchli hissasini ta’kidlaydi. Qo‘shnayga berilgan kuy yuqoriga yo‘naltirilgan xarakterga ega. U yumaloq frazalardan iborat bo‘lib, tog‘ga ko‘tarilish ramziy ishorasini ifoda etadi. Xuddi kirish qismidagi kuyga o‘xshab u ham pentatonikaga asoslangan. Bu mavzu chiroyliligi, kuychanligi va ixchamligi bilan ajralib turadi:

The musical score is arranged in seven staves. The top staff is for 'Qo'shnay' in treble clef, marked *mf*. The second staff is for 'Chang' in treble clef. The third staff is for 'Qonun' in treble clef. The fourth staff is for 'G'ijjak I' in treble clef, marked *mp*. The fifth staff is for 'G'ijjak II' in treble clef, marked *mp*. The sixth staff is for 'G'ijjak alt' in alto clef, marked *mp*. The seventh staff is for 'G'ijjak bas' in bass clef, marked *p*. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 3/4. The score consists of seven measures of music.

Keyingi rivojlanishlarni kompozitor shu kuyi bir-biriga intonatsion va faktura jihatdan yaqinlashtirgan holda ro‘yobga chiqaradi. 2-raqamda birinchi va ikkinchi mavzu elementlarining birlashishi, uchburchak, baraban va doyralarda sakkiztalik notalar orqali usulning bo‘rttirib ko‘rsatilishi sadolanishga faollik va intiluvchanlik baxsh etadi.

So‘ngra kompozitor birinchi o‘ringa mavzuning goh birinchi, goh ikkinchi qismini qo‘yib ma’noli va rang-barang tarannumga erishadi. Shu tariqa 3-raqamda birinchi mavzuning, 4-raqamda esa ikkinchi mavzuning elementlari ustunlik qiladi. Bu asarning qo‘sh variatsiya xususiyatlaridan dalolat beradi:

8^{rit.}

Fleyta *f*

Nay *f*

Goboy *f*

Qo'shnay *f*

rinet in B \flat *f*

Chang *f*

Qonun *f*

Rubob prima *mf*

Qashqar rubob *mf*

Afg'on rubob *mf*

Tanbur *mf*

Dutor

Dutor bas *f*

T-no

G'ijjak I *f*

G'ijjak II *f*

G'ijjak alt *f*

G'ijjak bas *f*

G'ijjak k-b. *f*

5-raqamdan birinchi mavzuning o'zgartirilgan va unga yangi elementlar kiritilgan yangi davri boshlanadi. Ular kuy diapazonining kengaytirilganligi, mavzuning intonatsion jihatdan yangilanganligida namoyon bo'ladi. 7-raqam kulminatsiya qismi bo'lib, unda kontrapunkt prinsiplariga asoslangan holda

birinchi va ikkinchi mavzu birlashtiriladi. Birinchi mavzu torli-mizrobli guruhda, ikkinchi mavzu esa qolgan barcha cholg'ularda yangraydi.

Asarning so'nggi rivoji damli va mizrobli cholg'ularning umumiy shakl harakati bilan bog'liq bo'lib, ular rivojlovning yangi fazasi 9-raqam *Piu mosso*ga olib keladi. Bu yanada yuqoriroq rivojlanish davri bo'lib, kompozitor vertikal ifoda vositalarini qo'llab, gorizontali rivojlovni vertikal bilan almashtiradi:

Più mosso

The musical score is for the piece "Più mosso" and is written for a large ensemble of traditional instruments. The instruments listed are: Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Tanbur, Dutor (alto and bass), T-no, G'ijjak I, G'ijjak II, G'ijjak alt, G'ijjak bas, and G'ijjak k-b. The score is in 3/4 time and has a key signature of one sharp (F#). The tempo is marked "Più mosso". Dynamics include forte (f) and piano (p). Some parts for the G'ijjak instruments include a pizzicato (pizz.) marking. The score shows a dynamic shift from forte to piano in the middle section.

Kulminatsiyaga erishilgach 9-raqamdan kuchayish pasayadi, 10-raqamda umumiy harakat yuqori registrdan pastga yo'naltirilgan bo'lib, xuddi tog'dan

tushayotgan holat musiqiy ifodalar orqali aks ettiriladi. 11-raqamda boshlan-g'ich sur'at paydo bo'ladi va koda vazifasini bajaruvchi yakunlovchi qism boshlanadi. Lirik asarning g'oyasi buyuk tog' obrazini, erkin va mustaqil Koreyaning ramzi sifatida takidlashdir.

“Arirang jozibalari” asarini H.Raimov 2006-yilda dutor-alt va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozgan. U Sharq folklorining marvaridi bo‘lmish - koreys xalq qo‘shig‘i “Arirang”ning variantli-variatsiyasi asosida yaratilgan. “Arirang” kuyi koreys xalqi uchun muhim ahamiyat kasb etib, koreys insonining qalb timsoli hisoblanadi. “Arirang” qo‘shig‘ida poetik va lirik shaklda mashhur tog‘ obrazi ramziy timsol sifatida ifodalangan. Buyuk xalqning yuksaklikka, mukammallikka intilishining qo‘shiq kuyi pentatonikaga asoslangan. Sakkiz taktli hajmdan iborat “Arirang” kuyining ushbu varianti kompozitorni kuy- chanligi, chiroyi, ohang mayinligi, nozik lirik xarakteri, valssimon aylanishi bilan o‘ziga rom etadi. Kirish qismida nay, qo‘shnay, chang va qonun ijrosida “Arirang” kuyi xuddi shunday yangraydi:

Allegretto

The musical score is for the introduction of 'Arirang' in 3/4 time, marked 'Allegretto'. It features four staves: Nay (top), Qo'shnay, Chang, and Qonun (bottom). The Nay part has a melodic line with a triplet of eighth notes. The Qo'shnay, Chang, and Qonun parts provide harmonic accompaniment, with the Qonun part featuring a triplet of eighth notes. The dynamic marking is 'mf' (mezzo-forte).

So‘ngra kuy torli-chertma cholg‘ular guruhi va ruboblarda ijro etiladi va tayanch “Re” ladida yakunlanadi. 1-raqamda *mf* nyuansida dutor-altida yakka- navoz sifatida “Arirang” kuyi paydo bo‘ladi:

The musical score is for the introduction of 'Arirang' in 3/4 time, marked 'mf' (mezzo-forte). It features a single staff for Solo Dutor alt. The score starts with a pizzicato (pizz.) marking and shows a series of chords and single notes, including a tremolo effect. The dynamic marking is 'mf'.

Mavzu original tarzda yoritilgan. Kompozitor bu yerda tremolo va *pizzicati*ni yuqori registrda qo‘llaydi. Kuy nozik va chiroyli yangraydi. Kuyning tremoloda qaytarilishi sezilarli tus oladi, g‘ijjaklar guruhida oktava unisonligida ijro etilgan mavzu bilan mujassamlashib, yanada ko‘tarinki ruhda namoyon bo‘ladi.

3-raqamda *Piu mossoda* “Arirang” kuyi dutor-altida orkestr jo‘rligida ijro etiladi. H.Rahimov ushbu kuyini turli variantda qo‘llaydi, ko‘rinishini o‘zgar- tiradi. Musiqiy rivojlanishda orkestrning turli guruhlari qo‘shiladi va natijada

yorqin bo‘yoqlarda *f* tovushida to‘laqonli, chiroyli manzara gavdalanadi. Orkestr cholg‘ularining asta-sekin mavzu elementlari bilan qo‘shilishi mahobatli “Arirang” tog‘ining yarqiroq qorli chuqqisini aks ettiradi. Kompozitorning mahorati chiroyli va betakror musiqiy peyzaj yaratishga imkon tug‘diradi. Mavzu asosida kompozitor uning bir necha ko‘rinishlarini turli temp, o‘lchov, xarakter, zarblar va ijro usullarida yaratadi. Birinchi ko‘rinish *Piu mosso* (5-raqam) da 2/4 o‘lchovida yozilgan va u yakkanavoz dutor-alt ijrosida kvarta, kvinta, oktava va detsima oralig‘ida yangraydi:



9-raqamda “Arirang” kuyi dutorda umuman boshqacha tarzda ijro etiladi. Koreys milliy koloritini yorqin namoyon etgan kompozitor bu yerda cholg‘ulashtirishga katta e‘tibor qaratadi va dutor-altni polidnamika prinsipi tufayli ta’sirli yangrashiga imkon yaratadi. Kuyning ikkinchi varianti *Tempo di valse* (9-raqam) 3/4 o‘lchovida yozilgan. Mavzu boshlang‘ich ko‘rinishda paydo bo‘ladi va *f* nyuansida yangraydi. 13-raqamda kuyning uchinchi varianti *Piu mosso* sur‘atida 6/8 o‘lchovda va nihoyat, to‘rtinchi varianti *Allegro* sur‘atida 4/4 o‘lchovida (18-raqam) ijro etiladi.

Ushbu variantli-variatsiyalarda kompozitor asosiy urg‘uni ritmik ko‘rinishlarga qaratadi, ular turli cho‘zimlarda turlanib, turlicha xarakter kasb etadi. H.Rahimov bu asarida o‘zbek va koreys cholg‘ulari ijro uslubida umumiylikni izlab topadi va uning asosida yakkanavoz guruhlarni u yoki bu tembrni yoritish uchun qo‘llaydi.

Asarda kompozitor turli variantlarni yaratishda mohirona yondashadi. Mavzu turli tembr va bo‘yoqlarda, yorqin dinamik kulminatsiyaga erishadi (18 raqam). Yakkanavoz partiyasi dutor-altida *Allegro* sur‘atida ikki ovozli fakturada *f* nyuansida yangi qirralari ochilgan holda g‘ayrat bilan ijro etiladi. Kulminatsiyaning tuzilishi juda qiziq bo‘lib, u oddiy uch qismli shaklni eslatadi. Kompozitor bu yerda qudratli *tuttini* qo‘llaydi. Asar “Arirang” mavzuidagi tantanavor koda bilan yakunlanadi.

“**Bayramona**” asari 2006-yilda “So‘g‘diyona” jamoasi uchun maxsus yozilgan bo‘lib, unda kompozitor turk kuylaridan unumli foydalangan. Ushbu asar tinglovchilarga optimistik ruh bag‘ishlaydi. Hayotni inson bayram sifatida qabul qilishi, undan zavq olishi, hayotga doim umid bilan qarash va uning go‘zalligidan bahra olish kabi barcha yaxshi fazilatlar ushbu asarda o‘z aksini topgan. Bularning barchasi “So‘g‘diyona” ijro talqinida o‘z ifodasini topadi. Asar kuchli energetikaga va dinamik harakatga ega. U bir xil *Allegro* sur‘ati va har xil o‘lchovga ega bo‘lgan ikki qismdan iborat. Birinchi qism *Allegro* 4/4 o‘lchovida bo‘lib, unga boshqa o‘lchov ham kiritilgan, 8-10-raqamlarda ametrik musiqa ham qo‘llanilgan.

Kompozitor asarda xalq ijrochilik amaliyotidan olingan manbalardan foydalanган holda zamonaviy ifoda vositasi bo‘lmish sonorika va aleatorikani qo‘llaydi. *Sensa metrum* ikki *Allegro* o‘rtasida bog‘lovchi vositasini bajaradi. Kompozitor nazorat qilinadigan aleatorikani qo‘llab, o‘ziga xos kadensiyani yaratadi. Bunda xalq cholg‘ulari o‘zining ijro mahorati va badihago‘ylik san‘atini namoyish etadi. “Bayramona” asarining musiqiy tili haqida gapiradigan bo‘lsak, uning ichki yaxlitligini, xususan asar qismlari uchun poydevor vazifasini bajaruvchi “Re” tayanch tonini ta’kidlash lozim. Umuman olganda Bayromona asari kompozitsiyasini quyidagi sxemada ta’riflash mumkin:

A	bog‘lovchi zveno	A 1
Allegro, 4/4	Sensa metrum	Allegro, 9/8
Re	Re	Re

Asarning birinchi qismida kompozitor xalq ijrochiligining rang-barang usullaridan unumli foydalanadi. Kompozitsiyaning asosini tayanch toni atrofida kuylanadigan kichik hajmdagi ohanglar tashkil etadi. Ular chang, qonun va ruboblarda yorqin temblarda yangrab, asarning boshlanishi sifatida bayramona va xursandchilik kayfiyatini baxsh etadi:

Allegro

The musical score consists of five staves, each representing a different instrument: Chang, Qonun, Prima rubob, Qashqar rubob, and Afg'on rubob. The music is in 4/4 time and marked 'Allegro'. The score shows the beginning of the piece, with various rhythmic patterns and trills. The instruments play in unison, with the Chang and Qonun playing a series of eighth notes, and the rubobs playing a series of eighth notes with trills. The score is written in a single system, with the instruments listed on the left and the music on the right.

Ushbu ohang tuzilishi faol rivojlanib 1-raqamda g‘ijjklarda avj olib boryotgan harakatda va keyin boshqa guruhlarda ritm jihatdan murakkablashgan holda yangraydi. 4-raqamda chang va qonunda sekstollar paydo bo‘ladi va ular ranglar uyg‘unligini namoyon etadi:

4

The musical score shows the fourth measure of the piece, featuring two instruments: Chang and Qonun. The music is in 4/4 time and marked 'sf mf 6'. The score shows a complex rhythmic pattern with sextas (6) and a dynamic marking of 'sf mf 6'. The instruments play in unison, with the Chang and Qonun playing a series of eighth notes. The score is written in a single system, with the instruments listed on the left and the music on the right.

Diatonik tuzilish rivojlanish jarayonida xromatizm bilan boyitiladi, nafis tembrlar ritmik o'zgarishlar bilan xalq cholg'u ijrochiligi tabiatini chiroyli trel va naqshinkor shakllar bilan aks ettiradi.

Asarning ikkinchi qismi o'rtasidagi bog'lovchi zveno bu alohida cholg'ularning badihago'ylik kadensiyasi bo'lib, u aleatorik ijro ostida yuksak ijro mahoratini namoyish etuvchi nay solosidir:



Rivojlanish jarayonida yakkanavoz cholg'u sifatida klarnet in B, dutor-alt va nay ijro etadi. Keyin estafetani qonunga uzatadi va u o'zining mohirona ijrosi bilan ikkinchi qismga olib keladi:



11-raqamda ikkinchi qism Allegro 9/8 o'lchovida boshlang'ich mavzuning o'zgartirilgan ko'rinishida paydo bo'ladi. Bu qismda kompozitor orkestr cholg'ularining texnik imkoniyatlari va zo'r mahoratini *tutti* orqali namoyon etadi. Bularning barchasi boshlag'ich mavzuning aksini, bayram azaldan ma'naviy boylik ekanligini kuchli *tutti* orqali ta'kidlaydi. Orkestrning barcha diapazonlarini qamrab oluvchi ko'p oktavali monodik unisonda *ff* nyuansida "Bayramona" asarining milliy mohiyati yorqin namoyon bo'ladi. Keng qamrovli kuy harakatining asta-sekin yuqori registrlarga ko'tarilib borishi, aynan yuqori registrda cholg'ularning tiniq va yorqin jaranglashi asarga tantanavorlik ruhini baxsh etadi. Asarning boshlang'ich mavzu qo'shilgan holda bunday yakunlanishi milliy xususiyat kashf etadi va tinglovchilarga badiiy psixologik kuch bag'ishlaydi.

2008-yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari xalqlarining kuylari asosida tuzilgan "**Shahrizoda hikoyalari**" popurrisi H.Rahimovning eng yorqin koloritga ega bo'lgan asarlaridan biridir. Ushbu asar obraz jihatdan arab ertaklaridan olib ishlangan "1001 kecha" asosida yaratilgan N.Rimskiy-Korsakovning simfonik syuitasi bilan bir-biriga o'xshab ketadi. G'oya analogini xalq cholg'ulari orkestrida yaratish maqsadida yuqori badiiy mazmunga ega bo'lgan asar yaratildi-ki, unda xalq cholg'ulari vositasida chiroyli tovushlar uyg'unligi mujassam bo'ldi. Kompozitor asar ijrosi uchun nay-pikkolo qo'shilgan to'liq orkestrdan foydalanadi. Orkestrning o'ziga xos rang-barang va milliy xususiyatini yoritib beruvchi surnay va karnaylar hamda kengaytirilgan zarbli cholg'ular guruhinig ifodaviy vositalari keng qo'llanilgan.

Asar *Lento* sur'atida taniqli Shahrizoda kuyi bilan boshlanadi. Kuy birinchi g'ijjaklar ijrosida mizrobli cholg'ularning akkordli foni ostida yangraydi. Ushbu mavzuning qisqa rivojidan so'ng tojik ladi va 7/8 o'lchovidagi metro-ritmik elementlari asosida *Andante moderato* sur'atida kompozitorning maxsus kuyi

paydo bo‘ladi. Ushbu lirik mavzu savol-javob tariqasida turli guruhlar, so‘ngra orkestr ijrosida ravon va kuychan ijro etiladi. 5-raqamda kuy 6/8 o‘lchovida butun orkestr ijrosida tantanavor ruhda tarannum etiladi:

Musical score for G'ijjak I, Lento, f espress. The score is in 6/8 time and features a melodic line with triplets and sixteenth notes.

6-raqamga to‘rt takt qolganda Shahrizoda mavzusi paydo bo‘ladi. U tojik va 6-raqamda boshlanadigan Xitoy xalq kuylari o‘rtasida bog‘lovchi qism vazifasini bajaradi. Bu “Gue xau” (baxt guli) lirik kuyi *Andante* sur‘atida butun orkestr *tuttisida* ijro etiladi. Asosiy mavzuni koreys damli cholg‘usi pxirini ravon va kuychan tembrini eslatuvchi nay va goboy cholg‘ulari ijro etadi, so‘ngra ushbu kuy orkestrning turli guruhlari orqali yangraydi:

Musical score for Andante, featuring various instruments: Nay, Goboy, Qo'shnay, Clarinet in Bb, Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Tanbur, Dutor alt, Dutor bas, and Dutor c-bas. The score is in 6/8 time and includes dynamics like *mp*, *pp*, and *ppp*.

9-raqamda yana Shahrizoda mavzusi yuzaga keladi va u keyin *Allegro* sur‘atida (10-raqam) yangraydigan qirg‘iz xalq kuyi “Qomuzchi” bilan birlashib ketadi. Kuy orkestrning guruhlari, avval mizrobli, keyin damli, so‘ngra kamonli va mizrobli cholg‘ularda parallel tarzda va nihoyat quvnoq xarakterda butun orkestrda namoyon bo‘ladi:

Allegro

Chang
Qonun
Rubob prima
Qashqar rubob
Afg'on rubob
Dutor
Tanbur
Legno

Usulning faollashuvi, orkestrda tovushlarning zichlashuvi yangi rivojlanish davriga olib keladi. Birdaniga sur'at o'zgarib *Meno mossoda* mizroblu va kamonli cholg'ular ijrosida rus xalq kuyi "Olma" ("Yablochko", 12-raqam) paydo bo'ladi. 13-raqamda ushbu mavzuning variatsiyasi ozgina tezlashgan holda yangraydi. Usullarining bo'linishi harakat faolligini oshiradi. 14-raqamda tantanavorlikni ifoda etish uchun butun orkestrda tezlashgan sur'atda asosiy kuy ijro etiladi:

Rubob prima
Qashqar rubob
Afg'on rubob
Tanbur
Dutor
Dutor bas
Dutor c-bas
Cymbals

15-raqamda Shahrizoda mavzusi *Vivo* sur'atida (16-raqam) yangraydigan qozoq xalq kuyi "Sari arka" bilan ulanib ketadi. Ushbu kuy asarning tantanavorligini yanada oshiradi:

18-raqam *Con fuocoda* orkestr yorqin kulminatsiyada maksimal darajada tovushlar ta'sirchanligiga erishadi. 21-raqamda orkestr *tuttisi* qattiq to'qinlanayotgan dengiz manzarasini namoyon etishi uchun to'liq ovoqli juda katta tovush hajmiga erishadi. Uning fonida nay-pikkolo, nay, goboy, qo'shnay va klarnet *in B* da chiroyli qo'shiq kuyi yangraydi.

22-raqamda koda boshlanadi. Butun orkestrda *tutti* bo'lib, ushbu asarning kulminatsiyasi bo'lmish o'zbek xalq kuyi "Shodiyona"ning paydo bo'lishiga olib keluvchi doyra usullari yangraydi. Asar Shahrizoda mavzusi va "Shodiyona" kuyining birgalikdagi ijrosi bilan yakunlanadi.

Kompozitor ushbu asarda xalq cholg'ulari orkestrning ifodaviy vositalari, shakl hissi, o'ziga xos chiroyli tembrlar uyg'unlashuvi va tinglovchilarga ta'sir etish kuchidan mohirona foydalanib, mukammal yozuv texnikasiga erishadi. Bir-birini to'ldirib boruvchi orkestr guruhlarining uyg'unlashib ketishi kuchli taasurotga ega. Mavzu torli kamonli cholg'ularda keyin damli cholg'u guruhida va asta-sekin butun orkestrda oktava unisonligida yangraydi.

2009-yilda yaratilgan "Orzu" asari romantik obrazlar, orzular olamiga intilgan musiqiy fikrlar parvozigalimmo-limdir. Ushbu holatni asarning birinchi taktida, nog'ora va doyraning poliritmik usuli ostida yuqori registrda nayning kuyi yangraganidayoq his qilish mumkin:

Ushbu kuy osmonda erkin va baland parvoz etayotgan afsonaviy qushning ovoziday tarannum etiladi. Bu insonning qush kabi osmonda parvoz qilgan ramziy orzusidir. Kompozitor kuyning uzluksiz yoʻnalish boʻyicha rivojlan-tiradi. Boshlangʻich sekundali takrorlanish keyingi mavzularning shakllanishiga asos boʻladi. Tematik rivojlanish tamoyili kompozitorga fikrlar harakatini egiluvchan tarzda namoyon etishga imkon yaratadi. Asar musiqiy kompo-zitsiyasining tuzilishida davrli (faza) tizim tamoyilini taʼkidlash lozim. Birinchi davr - nay solasi, ikkinchi davr - gʻijjakchilar guruhi (unison), uchinchi davr - nay-pikkolo va gʻijjaklar kulminatsiyasi, toʻrtinchi davr - ruboblar va nayda - polifonik rivojlanish.

Oʻn yettinchi taktida nay mavzusining yakunlanishida torli-kamonli, torli-cherma va torli-mizrobli cholgʻular rivojlanishga qoʻshilib, oʻz parvozlarini da-vom ettiradilar:

The musical score is for a piece titled "Nay picc." and is written in 8/8 time with a key signature of one sharp (F#). The score consists of 17 staves, each representing a different instrument or vocal part. The instruments listed are: Nay picc., Nay, Chang, Qonun, Rubob prima, Qushqar rubob, Afgʻon rubob, Dutor bas, Tamb., Gʻijjak I, Gʻijjak II, Gʻijjak alt, Gʻijjak bas, and Gʻijjak k-b. The score is divided into four measures. The first measure shows the initial entry of the instruments. The second and third measures show a development of the themes, with various instruments playing in unison or in a polyphonic texture. The fourth measure shows the conclusion of the piece. Dynamic markings of *mf* (mezzo-forte) are used throughout the score to indicate the volume of the instruments.

O'n to'qqizinchi taktda boshlang'ich mavzu torli-kamonli cholg'ularda kuchli hissada boshlanadi. Uning ohangi turli registrda turli variantlarda namoyon bo'ladi. Mavzu unison ko'rinishda g'ijjaklar guruhida rivojlanadi va rang-barang tembrlarda, *tuttida* keng ko'lamda to'liq sadolanish orqali kulminatsiyaga erishadi. So'ngra faktura siyraklashadi va tiniqlashadi, mavzu esa oktava unisonligida, yangi tembrlarda torli-chertma cholg'ularda yangraydi. Keyin mavzu keng va kuychan tarzda torli-kamonli cholg'ular guruhida va nihoyat nay va nay-pikkolo, dutor va torli-kamonli cholg'ularda naqshinkor va chiroyli ohanglarda yakunlanadi.

“Orzu” asarida H.Rahimov naqshinkor ifoda vositasi, kuyning tembr jihatdan rivojlantirishdan kelib chiqqan holda milliy monodik fikrlash tabiatiga asoslangan tembr dramaturgiyasi yechimiga ega bo'ladi.

Kuyning turli orkestr guruhlari, turli tembr bo'yoqlarida ketma-ket ijro etilishi, betakror, original tovushlar majmuini yaratadi. Kuyni cholg'ular guruhi yordamida rang-barang tembrlarda namoyon etish bilan birga kompozitor asosiy mavzuni qayta ishlash uslubidan, yani kuyning asosini alohida bo'rttirib ko'rsatish hamda fon sifatida qo'llashda ham foydalanadi. Faktura o'zining tematik ahamiyatini saqlab qoladi va bu asarga alohida ifodaviylik baxsh etadi.

“**Tong navosi**” asari 2009-yilda programma asosida uch qismli shaklda yozilgan bo'lib, u norveg kopozitori Edvard Grigning simfonik orkestr uchun “Per Gyunt” syuitasining birinchi qismi “Tong” pyesasida qo'yosh chiqish manzarasini tasvirlab yozgan syujetini davom ettiradi. Grigning ta'siri “Tong navosi” asarida chiroyli ohangdor kuyni ijro etuvchi yakkanavoz cholg'ularni tanlash nuqtai nazarida namoyon bo'ladi. Ushbu holatda kompozitor qashqar rubobini tanlaydi. Grig singari H.Rahimov ham tong manzarasini namoyon etish uchun qushlar sayrashini ifoda etuvchi naqshinkor, sof, tiniq, beg'ubor bo'yoqli diatonikaga murojaat etadi. Grig asarida tong va tabiatning uyg'onish manzarasi fleyta cholg'usi orqali sokin va osoyishta tasvirlangan bo'lsa, H.Rahimov undan farqli o'laroq shimolga o'xshab harakatsiz emas, balki sharqning jonli uyg'onish manzarasini yaratadi. Shuning uchun u tonggi shamol va daraxt barglarining shitirlagan harakatini namoyon etish uchun *Allegro* sur'atini tanlaydi. Yakkanavoz qashqar rubobi kuyi trellsimon ko'rinishda va ritmik jihatdan rang-barang berilgan:



Ushbu kuy orkestrda garmonik ohanglar ostida juda tiniq va ma'noli yangraydi. O'n birinchi taktda kuy bir muncha o'zgartirilgan ko'rinishda birinchi va ikkinchi g'ijjaklarda paydo bo'ladi va ruboblarda ijro etiladigan yuqoriga yo'naltirilgan kuy bilan qo'shib, chiroyli tovushlar uyg'unligini hosil qiladi.

Mahoratli kompozitor H.Rahimov torli-chertma, torli-mizrobli va torli-kamonli cholg'ularning bir-birini davom ettirishi, to'ldirib borishi orqali (1-raqam) bamisoli 2-raqamda asosiy mavzu torli-mizrobli cholg'ular jo'rnavoqligida nay-pikkolo va nayda yangragani singari chiroyli tembr uyg'unliklariga erishadi. Ularga jo'r bo'luvchi garmonik ohanglar murakkablashib, sekstollarga aylanib, kuy tarovatini tembr bo'yoqlari bilan boyitadi. Asarning o'rta qismida kuyning keng rivojlanishi shu tariqa namoyon bo'ladi.

Keng qamrovli rivojlanishdan so'ng 4-raqamda ozgina harakat pasayadi va 5-raqamda dutorlar va g'ijjaklar guruhleri ijrosini takrorlovchi prima-rubobi va qashqar rubobi yakkanavoqligida repriza boshlanadi. Bunday tembrlarning qo'shilishi badiiy jihatdan puxta rejalashtirilgan bo'lib, orkestrda yangi ifodaviy bo'yoqlarning namoyon bo'lishiga olib keladi. hu bilan birga kuy tugaganda, uning rivoji boshqa cholg'ularda davom etadi. Shu tariqa 6-raqamda ovozlarning so'nib borishini namoyon etuvchi chiroyli taasurot yaratiladi. Asar tovushlarining asta-sekin so'nib borishi bilan yakunlanadi. "Tong navosi" asari orkestrning beqiyos ifodaviy vositalari, tembr boyligi hamda kompozitorning ijodkorlik mahoratini namoyon etadi.

Raqs mavzulari va shakllari boshqa barcha kompozitorlar singari Habibulla Rahimovni ham o'zining ma'naviy madaniyati hamda eng qadimiy va o'ziga xos betakror janr sifatida o'ziga jalb etgan. Shu orqali bugungi kunga qadar o'zbek xalqining azal-azaldan namoyon etilgan estetik go'zalligi, qolaversa, Sharq dunyosi, o'zbek xalqining urf-odatleri va go'zal tabiatini mohirona raqs harakatlari orqali namoyon etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Kompozitorning o'zida xursandchilik kayfiyatlarini mujassam etgan nozik va ma'noli harakatlarga boy asarlaridan biri 2009-yilda yaratilgan "**Gullar raqsi**"dir. Ushbu raqsni namoyon etish uchun muallif miksoliy elementleri mavjud bo'lgan major ladini tanlaydi. Melodik mavzuni rivojlantirish uchun H.Rahimov o'ziga xos bo'lgan variantli-variatsiya uslubida tematik mavzudan imkon qadar foydalanishga harakat qiladi.

Asar tabla va yog'och qutichaning 7/8 o'lchovidagi usuli va g'ijjaklar guruhining *col legno*, ya'ni korpusga kamon bilan taqillatish usulidagi kichik kirish qismi bilan boshlanadi. Ushbu *f* nyuansida taqillatish holati raqsona xarakterni ifoda etadi. Orkestrning *tutti* bo'lib qo'shilishi gullar bayramiga kelgan barcha ishtirokchilarning raqs harakatiga qo'shilayotgandek manzarani hosil qiladi. 1-raqamda va keyinchalik butun orkestr ijrosida *f* nyuansida qadimdan ijro etish uchun qulay bo'lgan unison kuy yangraydi. Bu aynan bayramga tashrif buyurgan mehmonlarning ko'pligidan dalolat beradi:

The image shows a musical score for a traditional ensemble. The instruments listed on the left are: Piccolo, Nay, Qo'shnay, Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor (prima and bas), Tabla, G'ijjak I, G'ijjak II, and G'ijjak bas. The score is written in 7/8 time with a key signature of two sharps (F# and C#). The dynamics are marked with *f* (forte) for most instruments. The Tabla part is written in a different notation, likely representing rhythmic patterns. The score consists of four measures, with the final measure ending in a fermata.

Ushbu asosiy mavzudan, keyingi barcha, ko‘pincha aylanish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar kelib chiqadi. 2-raqamda qashqar ruboblar guruhida yorqin melodik kuyning tuzilishida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan trel tabla zamin usuli ostida yangraydi. Ularga chang va qonun yengil arpedjio akkordlari orqali ko‘maklashadi:

Chang

Qonun

Rubob prima

Qashqar rubob

Afg'on rubob

Dutor

Tabla

Kvarta-kvinta paralellizmi bilan zichlashgan oktava unisonligidagi kuy musiqaning milliy xarakterini yoritish uchun keyinchalik ham davom etadi. 4-raqamda murakkab 7/8 o'lchovida taktning kuchli va nisbatan kuchli hissasini trel yordamida kuchaytiruvchi miksoliy ladining septimasi muhim ifodaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim:

Rubob prima

Qashqar rubob

Afg'on rubob

Dutor

Dutor bas

Tabla

G'ijjak I

G'ijjak II

G'ijjak bas

5-raqamda dinamik rivojlanish asosiy mavzuning ko'povozli unisonida *tutti* bo'lib, *f* nyuansida ijro etilishi yorqin kulminatsiyaga olib keladi. Ushbu kulminatsiyadan so'ng, kuchlanish ozgina pasayadi va 6-raqamda g'ijjklarning *pizzicato* akkordlari va afg'on ruboblarining "Mi" zamin tovushi ostida nayning kadensiyasi yangraydi:

The musical score is for the piece "Gullar raqsi" and is written for a chamber ensemble. It consists of two systems of music. The first system includes parts for Nay, Afg'on rubob, Tabla, and four G'ijjak parts (I, II, bas, and k-b). The Nay part features a melodic line with a mezzo-forte (*mf*) dynamic and a trill. The Afg'on rubob part provides a sustained accompaniment with a piano (*p*) dynamic. The Tabla part plays a rhythmic pattern. The G'ijjak parts provide a harmonic accompaniment with a pizzicato (*pizz.*) marking. The second system continues the piece with a trill marking on the Nay part.

7-raqamda asosiy mavzu kuchli *tuttida* qayta paydo bo‘ladi, butun raqs qaytariladi va ko‘zni qamashtiradigan darajada yakunlanadi. “Gullar raqsi” tahlilini umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash lozim-ki, kompozitor H.Rahimov gullar mavzusi orqali o‘z qarashlarini namoyon etadi.

“**Oqshom sabolari**” asari 2009-yilda H.Rahimov tomonidan o‘zbek xalq cholg‘lari orkestri uchun lirik vals xarakterida yozilgan. Asar mazmunini to‘laqonli ifodalash uchun aynan shunga monand nyuanslar qo‘llanilgan. Vals janriga xos bo‘lgan uslubiy xususiyatlar: bas-akkord jo‘rnavorlik vazifasini bajaragan g‘ijjaklar guruhi va torli-chertma cholg‘ular guruhlarida yaxshi ko‘rsatilgan. Asosiy mavzu ijrosi uchun kompozitor prima-rubobini tanlaydi:


Tempo di valse

Rubob prima
Afg'on rubob
Dutor
Dutor bas
Dutor k.b.
Triangle
Tambourine
G'ijjak I
G'ijjak II
G'ijjak alt
G'ijjak bas
G'ijjak k.b.

Rubob-prima sadosi yumshoq, lirik koloritni yaratadi. So'gra, 1-raqamda kuy yo'nalishi nay, chang va qashqar ruboblarida ijro etiladi. Birinchi va ikkinchi g'ijjaklar zamin tovushlari orqali jo'rnavozlik vazifasini bajaradi. Orkestr tarkibidagi boshqa barcha cholg'ular *P* nyuansida yengil *pizzicato* orqali usul berib, asosiy kuyga jo'rnavozlik qiladi:

Nay
Chang
Qashqar rubob
Afg'on rubob
Dutor
Dutor bas
Dutor k.b.
Tamb.
G'ijjak I
G'ijjak II
G'ijjak bas
G'ijjak k.b.

Bunday cholgʻu tembrlarining birikmasi original sadolanishga olib keladi va unga keyinchalik boshqa cholgʻular ham qoʻshiladi. Asarda kuy yoʻli valsqa xos boʻlgan ravon bosqichma-bosqich harakatlanishi, toʻlqinsimon aylanishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa yakkanavozlar nay, prima-rubobi va qashqar ruboblaridagi gammasimon toʻlqinli aylanishlar juda chiroyli namoyon etilgan. Kompozitor chang va qonunda qoʻsh notali *glissando* usulini qoʻllaydi:



Ushbu ifodali usul orkestr tembr resurslarini boyitadi. “Oqshom sabolari” asari yoqimlilik, kuychanlilik va lirik ohanglarning mayinligi bilan ajralib turadi. Tinglovchilarga oʻzining chiroyi va jozibadorligi bilan taʼsir etadi.

“**Toshkent fasllari**” musiqiy manzaralar turkumini Habibulla Rahimov 2009-yilda Toshkentning 2200-yiliga bagʻishlab yozgan. Unda barcha fasllar oʻz aksini topgan. Syuita 4 qismdan iborat boʻlib, uning har biri maʼlum bir faslni qamrab oladi. Kompozitor turkumni qish fasli bilan boshlaydi. Syujetning bunday tanlovi puxta oʻylab topilgan boʻlib, badiiy jihatdan ham maqsadga muvofiqdir. Haqiqatdan ham qishda tabiat uxlaydi, kuz esa yil yakuni boʻlib, yillik sarhisob va hosil bayrami oʻtkaziladigan fasldir. Bunday dramaturgiya oʻz yechimi bilan kompozitorda ishonch hosil qilib, aniq harakat dinamikasini yaratishga yordam berdi. Birinchi qism “Qish - Qorboʻron”, ikkinchisi “Bahor - Bahor tongi”, uchinchisi “Yoz - favvoralar raqsi”, toʻrtinchisi “Kuz - hosil bayrami” deb ataladi.

“Toshkent fasllari”- maʼlum bir davrni tasvirovchi bir-biriga qarama-qarshi tarkibiy shaklda yozilgan boʻlib, kompozitor har bir faslni orkestr boʻyoqlari bilan aniq tasvirlashga imkon yaratadi. Kompozitor turkumda oʻzbek xalq kuy-lari “Toshkent iroqi” va “Toshkent ufori”dan foydalanadi.

H.Rahimov simfonik orkestr cholgʻulari: fleyta, goboy, klarnet, ksilofon, qoʻngʻiroqcha va boshqalar kiritilgan katta tarkibni qoʻllaydi. Asarni chogʻulashtirishda chiroyli ovoz tarovatini yarata olganligi, orkestr xususiyatini chuqur bilganligi va tembr imkoniyatlaridan unumli foydalanishidan dalolat beradi. “Toshkent fasllari” partiturasida cholgʻu boʻyoqlarining boyligi hamda ranglar uygʻunligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Kompozitor ushbu asarida milliy xususiyatlar avj va badihagoʻylikni ifodalash uchun zamonaviy kompozitorlik uslubi, ayniqsa sonorika va aleatorikadan unumli foydalangan.

Birinchi qism “Qish - qorboʻron” (e-moll), poytaxtda qor yogʻish manzarasini namoyon etadi. U ABCBA koʻrinishidagi konsentrik shaklda yozilgan boʻlib, unda koʻpgina qiziqarli va innovatsion topilmalar mavjud. Birinchi manzara mavzusi haqida gapiradigan boʻlsak, shakl hosil qiluvchi omilni fakturada

birinchi o'ringa chiqarishga harakat qilganligini ta'kidlash lozim. Asarning boshlanishidagi ikki oktavali yuqoriga va pastga yo'naltirilgan, har gal dinamik jihatdan ko'chayib boradigan orkestr ijrosidagi *tutti glissandososi* e'tiborni o'ziga jalb etadi :

Allegro

The musical score is arranged in a system with 18 staves. The instruments and their parts are as follows:

- Clarinet in B \flat** : Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Chang I,II**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Qonun**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Rubob prima**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Qashqar rubob**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Afg'on rubob**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Dutor alt**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Dutor bas**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Dutor k.b.**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Timpani**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *sf mf*, *ff*.
- Flexaton**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *mf*, *f*.
- Gran cassa**: Percussion, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *p*.
- Piatti**: Percussion, 4/4 time. Dynamics: *p*, *mf*, *p*, *f*.
- G'ijjak I**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *mf*, *ff*.
- G'ijjak II**: Treble clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *mf*, *ff*.
- G'ijjak alt**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *mf*, *ff*.
- G'ijjak bas**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *mf*, *ff*.
- G'ijjak k.b.**: Bass clef, 4/4 time. Dynamics: *sfp*, *f*, *mf*, *ff*.

The score features a dynamic glissando across all parts, starting at *sfp* and moving through *f*, *sf mf*, and *ff*. The tempo is marked **Allegro**.

Partituraning boshlanishi grafik shaklda bo‘lib, u kompozitor tomonidan qorbo‘ronni tasvirlash uchun qo‘llanilgan zamonaviy ijro usullarini namoyon etadi. Qorbo‘ronni tasvirlovchi manzaraning boshi, ya‘ni asarning birinchi qismidagi “A” yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan to‘lqinsimon *glissandolar* orqali tinglovchilarga tovushlar uyumining upirilayotganligiga asoslangan.

2-raqam *Presstodan* asarning ikkinchi qismi boshlanadi va unda faktura o‘zgarishi ro‘y beradi. Chang, qonun, mizrobli cholg‘ular va dutorda triolga asoslangan hamda ularga uchburchak va baraban sakkiztalik notalar orqali triol usulida jo‘rnavoqlik qiladigan faktura paydo bo‘ladi:

Presto

The musical score is for a piece titled "Presto". It features seven staves of instruments: Chang I, II; Qonun; Rubob prima; Qashqar rubob; Afg'on rubob; Dutor; and T-no/T-ro. The time signature is 12/8. The dynamic marking is *mf*. The score shows a complex rhythmic pattern with triplets and eighth notes across all instruments.

Bu yerda ham tasviriy boshlanish muhim ifodaviy ahamiyatga ega. Doimiy triollar qor parchalarining aylanishini namoyon etadi. Butun orkestr *tuttisidan* so‘ng bitta guruhning *mf* nyuansida ijro etishi ko‘zga tashlanadigan darajada juda aniq qabul qilinadi hamda tembr bo‘yoqlarida tiniqlik yaratiladi. Rivojlanish jarayonida triol shaklida berilgan ohanglar g‘ijjaklar guruhida paydo bo‘ladi (3-raqam). “A” 4-raqamda triollar yog‘och damlilarda yangraydi. Orkestr *tuttisi* dinamik jihatdan ko‘chayib qor parchalarini qorbo‘ronga aylantiradi va butun orkestr ijrosidagi majburiy triol bilan kulminatsiyaga olib keladi.

Yangi qism “S”- markaziy *Meno* oldingilaridan tiniqligi, ya‘ni ifoda vositalari bilan keskin ajralib turadi. “A” va “B” qismlarida faktura mavzusiga oid shaklli ohanglar asosiy vazifani bajargan bo‘lsa, bu qismda esa chang va qonunda oktava sakramalari ostida fleyta kuyi bo‘rttirib ko‘rsatilgan. *pp* va tiniqlik keskin farq qilib, tinglovchilar e‘tiborini o‘ziga jalb etadi va qor parchalarini asta-sekin yerga tushishini tasvirlaydi. Qorbo‘ron to‘xtaydi. 6-raqamdan yana triol shaklidagi ohanglar (B) paydo bo‘ladi, ular faktura jihatdan chang va qonundagi 16 talik oktava sakramalari orqali murakkablashtirilgan. 7-raqamda to‘lqinsimon shakllar qayta paydo bo‘ladi (A) va birinchi qism yakunlanadi. Shunday qilib, H.Rahimov birinchi qismda Qorbo‘ron manzara-

sini namoyon etishda zamonaviy ijro vositalari, xususan sonorikani qo'llab orkestr mahoratidan unumli foydalanadi.

Ikkinchi manzara "Bahor - Bahor tongi" (*g-moll*), birinchi qism "Qish" singari kompozitsion tuzilishga ega. Bu yerda "A B A" tarkibini ko'rish mumkin. Asar birinchi qismidan nafisligi, naqshinkorligi, chiroyliligi va kuychanligi bilan keskin farq qiladi. A qismi nay solosi bilan boshlanadi. H.Rahimov asarda yaqqol tasvirlash tamoyilini qo'llaydi. Nay piccolo solosi to'rg'ayning kuylashini taqlid qiladi. Boshlang'ich maxsus kuy jadallashtiriladi, unga birinchi va ikkinchi naylar hamda goboy qo'shiladi. Birinchi va ikkinchi g'ijjklarning tremolosi nozik to'lqinsimon bahor havosini yaratadi. Bu qismda kompozitor xuddi birinchi qismdagi singari zamonaviy yozuv texnikasi, xususan aleatorikani qo'llaydi va asta-sekin aleatorik bloklarni tovushlar butunligiga jalb etadi va shu orqali qushlar bozorini tasvirlaydi:

The image shows a musical score for five instruments: Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor (treble clef), and Dutor (bass clef). The score is in 4/4 time and features a dynamic marking of *sfmf* (sforzando molto forte). The Rubob instruments play melodic lines with triplets and slurs. The Dutor instruments provide a rhythmic accompaniment with chords and triplets. The score is divided into measures, with some measures containing rests for certain instruments.

12-raqamda "B" qismi boshlanadi. Bu yerda keskin o'zgarish yuz berib, faktura tiniqlashadi, chang va qonunlarning yengil arpedjioli akkordlari ostida birinchi va ikkinchi g'ijjklarda oktava unisonligida nozik va lirik xarakterdagi, *legato* usulida ijro etiladigan bahor kuyi yangraydi. U tuzilishi bo'yicha diatonik bo'lib, tersiyaga asoslangan. Kuy sekvensiya asosida kengaytirilib unga noziklik va kuychanlik baxsh etadi:

The image shows a musical score for four instruments: Chang, Qonun, G'ijjak I, and G'ijjak II. The score is in 4/4 time and features a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte). The Chang and Qonun instruments play chords and arpeggios. The G'ijjak instruments play melodic lines with slurs and trills. The score is divided into measures, with some measures containing rests for certain instruments.

Polifonik fakturani harakterlovchi o'rta qism shiddatli ravishda rivojlanib, unda o'rta qismdagi asosiy tersiya ohangidan tuzilgan jo'r bo'luvchi polifoniya qo'llanilgan. 13-raqamda oktava unisonligida chang, qonun, prima va qashqar hamda afg'on ruboblarida yuqoriga yo'naltirilgan nafis kuy paydo bo'ladi:

Musical score for five instruments: Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, and Afg'on rubob. The score is in 4/4 time and features a melody with triplets and a dynamic marking of *mf*.

G'ijjak I-II va yog'och damlilar o'zlarining jo'r bo'luvchi ovozlari bilan ushbu kuy tarovatini boyitadi. 14-raqamda bu kuy g'ijjaklar guruhi orqali ijro etiladi va u boshqacha temblarda emotsional tarzda va manoli yangraydi. U ko'rinish jihatdan bir muncha o'zgartirilib, unga o'ziga xos yangilik baxsh etadi.

15-raqamda rivojlanishga butun orkestr ohista melodik harakat bilan qo'shiladi. Ritmik egiluvchanlik tufayli, ayniqsa sinkopalar yordamida, hayron qolarli darajada ohang mayinligi yuzaga keladi. Ushbu qism kulminatsiyasida barcha orkestr cholg'ulari faollashadi va litavrada navro'zdan, yangi kundan, quyosh chiqishidan darak beruvchi usul paydo bo'ladi. Pastga qarab yo'naltirilgan *tutti glissandos*i karnay ovozini taqlid qiladi. Erishilgan kulminatsiyadan so'ng repriza boshlanadi. "A" qismi birmuncha qisqartirilgan o'zgartirilgan holda paydo bo'ladi. Fleyta-pikkoloda ijro etiladigan to'rg'ayning sayrashiga yengil harakatlar bilan chang va qonun jo'rnavorlik qiladi. Bahor tongi manzarasi xotirjamlik, nozik, yumshoq ohanglarda yakunlanadi.

Uchinchi qism - "Yoz - Favvoralar raqsi" (*E-dur*) o'z jarangdorligi bilan juda qiziq. U fakturaning boyligi bilan musiqiy rivojlanishga keskin o'zgarish kiritadi. Tabiatning asosiy elementlaridan biri bo'lmish suv unsuri boshqa davr va uslub kompozitorlarini ham bir necha bor o'ziga jalb etgan. Bu borada N.Rimskiy-Korsakovning "Shahrizoda", O.Respigining "Rim fontanlari", K.Debyusining "Noktyurn"lari, M.Rovelning "Suv o'yini"ni eslab o'tish joizdir. Musiqa vositalari bilan tasvirlangan "Favvoralar raqsi" qismi ushbu suv dunyosi galereyasiga yangilik olib kiradi. Kompozitor bu yerda impressionizm an'alariga tayangan holda o'n oltitalik sekstol shakliga asoslangan ifodaviy tasviriy ohanglarni qidirib topadi:

Musical score for five instruments: Chang, Qonun, G'ijjak I, G'ijjak II, and G'ijjak alt. The score is in 4/4 time, marked *Allegro*, and features a melody with sixteenth notes and a dynamic marking of *p*.

The image shows a musical score for a string ensemble. It consists of five staves: Ch. (Violin I), Q. (Violin II), G.I. (Viola I), G.II. (Viola II), and G.a. (Cello/Double Bass). The music is written in a 4/4 time signature and features a consistent rhythmic pattern of sixteenth notes. Above the first four staves, the number '6' is written above groups of notes, indicating a specific fingering. A dynamic marking of *p* (piano) is placed below the G.II. staff. The G.a. staff also has a *p* marking below it. The score is divided into two measures, with a double bar line between them.

Chang I-II va qonunga, g'ijjak I-II va keyinchalik butun orkestr qo'shiladi va yarqiroq favvora tomchilari suv o'yining chiroyli manzarasi hosil bo'ladi. Poliritmiya imkoniyatlarini qo'llab H.Rahimov betakror ohang go'zalligiga erishadi. 20-raqamda torli-chertma cholg'ular oktava unisonligida favvoralar raqsining chiroyli, ajoyib kuyini ijro etadi:

The image shows a musical score for a group of stringed instruments. It consists of six staves: Rubob prima, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor, Dutor bas, and Dutor k-b. The music is written in a 4/4 time signature and features a consistent rhythmic pattern of eighth notes with triplet markings (indicated by a '3' over the notes). A dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) is placed below the first staff. The score is divided into two measures, with a double bar line between them.

Ushbu diatonik kuy o'rta registrda boshqa barcha orkestr guruhlarining shildiragan ohang shakli ostida juda aniq yangraydi. Kompozitor tomonidan muvaffaqiyatli ravishda topilgan ushbu uslub, tinglovchilarda unutilmas taasurot qoldiradi. Keyin aynan shu nozik kuy torli-kamonli cholg'ular guruhida yangraydi va torli-chertma cholg'ular bilan birgalikda chiroyli tembrlar birikmasini hosil qiladi:

Rubob prima

Qashqar rubob

Afg'on rubob

Dutor

Dutor bas

Dutor k.b.

Kolokolchik

Timpani

G'ijjak I

G'ijjak I, II

G'ijjak alt

G'ijjak bas

G'ijjak k-b.

Pr.rub.

Qash.rub.

Afg'.rub.

Dut.

Dut.b.

Dut.k.b.

Kol-chik

Timp.

G'. I

G'. II

G'. a.

G'. b.

G'. k-b.

22-raqamda mayin, ravon kuy torli-chertma cholg'ularda ohirigacha suv o'yini ohanglari ostida yangraydi.

To'rtinchi qism, "Kuz - Hosil bayrami" (*D-dur*) o'ziga xos xalq bayrami manzarasini yorqin aks ettiruvchi lavhadir. U nog'oraning bo'rttirib ko'rsatilgan ufor usuli bilan boshlanadi. Damli cholg'ularda tasvirlangan ko'p oktavali kuy ufor usulidagi bayramona kayfiyatni aks ettiradi:

Allegro

Nay I, II
 Oboe
 Qo'shnay I, II
 Clarinet in B \flat
 Chang
 Qonun

Orkestr *tuttisi* butun tovush diapazonini egallaydi. 25-raqam *Menoda* birinchi epizod "B" yangraydi. Faktura tiniqlashib boradi, tanbur solosi raqs musiqasini ta'kidlaydi:

Meno

Tanbur
 Doyra
 G'ijjak bas
 G'ijjak k-b.

Tanbur ijrosidagi "Toshkent iroqo" kuyiga asta-sekin boshqa cholg'ular ham uning bo'yoqlarini yanada boyitish va to'ldirish uchun qo'shiladi. 28-raqamda refren "A" final musiqa shakliga turg'unlik kiritish maqsadida orkestr ohanglari xajmi bilan mazmunga boy tarzda paydo bo'ladi.

Ikkinchi epizod "C" (29-raqam) dutor solosi, ya'ni "Toshkent ufori"ga asoslangan:

solo

Dutor
 T-no.

Baraban usuli dutor ikki ovozigidagi raqsona xarakterni ta'kidlab, koden-siyaga va undan keyin paydo bo'luvchi kuchli *tutti* sadosida refrenga olib keladi. Final (34-raqam) hayot va mehnat xursandchiligini eng muvofiq tarzda joriy etuvchi o'ziga xos bayram tantanasi bilan yakunlanadi. Kodada faktura keskin o'zgaradi va uning oxirgi ikki takti boshlang'ich mavzuda yakunlanadi. Shunday qilib, H.Rahimov "Yil fasllari" manzarali turkumiga yangi zarblar kiritadi. Ularning almashinuvini keng tarzda ko'rib va ular ketma-ketligini xis etgan xolda oqilona tarzda tamomlaydi.

SAVOLLAR:

1. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining katta tarkibini tariflab bering?
2. H.Rahimov talqinida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri katta tarkibi qanday xususiyatlarga ega?
3. H.Rahimovning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri katta tarkibi uchun yaratgan qaysi asarlarini bilasiz?
4. H.Rahimovning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri katta tarkibi uchun yaratilgan asarlaridan biri haqida gapirib bering?

TOPSHIRIQLAR:

1. H.Rahimovning katta tarkib uchun yaratgan asarlarini partitura bilan birga tinglang (audio yoki video yozuvini) va tahlil qiling.
2. H.Rahimovning katta tarkib uchun yaratgan asarlaridan birini tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.

TAYANCH IBORALAR:

Yapon ladlari, yapon koloriti, naqsh bezaklari, yapon miniatyurasi, ohang rivoji, tembr dramaturgiyasi, garmonik ohanglar, raqs mavzulari, poema-konsert, dialog elementlari, "Arirang" kuyi, Shahrizoda mavzusi, manzaralar turkumi.

ADABIYOTLAR:

1. Лутфуллаев А. История исполнительства на узбекских народных инструментах. - Т., 2010.
2. Liviev A. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. - T., 2005.
3. Ташматова А. Дони Зокиров номидаги давлат халқ чолғулари оркестри. - Т., 2015.

I –BOB BO‘YICHA TESTLAR:

1. “Qo‘shyor” asari qaysi shaklda yozilgan?
 - a) Uch qismli shaklda
 - b) Ikki qismli shaklda
 - c) Rondo shaklida
 - d) Variatsiya shaklida
2. “Qo‘shyor” asarining boshlang‘ich qismida qaysi cholg‘u yakkanovozlik qiladi?
 - a) Dutor-prima
 - b) Dutor-bas
 - c) Dutor-kontrabas
 - d) Dutor-alt
3. “Qo‘shyor” asarida kompozitor qanday usulni qo‘llaydi?
 - a) Aks-sado ko‘rinishidagi usul;
 - b) Orkestrning tutti glissandosi
 - c) Chang va qonunning zamin tovushi
 - d) Torli-chertma cholg‘ularning akkord usuli
4. “Qo‘shyor” asarining 10-raqamida fakturada qanday ko‘rinish qo‘llanilgan?
 - a) Fuga bayoni
 - b) Garmonik gorizontal
 - c) Garmonik, vertical
 - d) Stretto usuli
5. “Qo‘shyor” asarida repriza qaysi raqamdan boshlanadi?
 - a) 11-raqamdan
 - b) 18-raqamdan
 - c) 12-raqamdan
 - d) 16-raqamdan
6. “Qo‘shyor” asarida 17-raqamda yakkanavoz kodensiyasini qaysi cholg‘u ijro etadi?
 - a) Dutor-alt
 - b) Dutor-prima
 - c) Dutor-bas
 - d) Dutor-kontrabas
7. “Arabcha poema-konsert”da qaysi cholg‘u yakkanavozlik qiladi?
 - a) Qonun
 - b) Qashqar rubob
 - c) Afg‘on rubob
 - d) Chang
8. “Arabcha poema-konsert”da kompozitor kimning kuylarini

asos qilib olgan?

- a) Riyot Sanbotiy
- b) Feruza Abdurahimova
- c) Anvar Liviyev
- d) Botir Rasulov

9. "Arabcha poyema-konsert" qanday shaklda yozilgan?

- a) Sonata shakli
- b) Ikki qismli
- c) Uch qismli
- d) Variatsiya shakli

10. "Yaponcha raqs" asari qachon yozilgan?

- a) 2001-yil
- b) 1993-yil
- c) 2016-yil
- d) 2010-yil

11. "Yaponcha raqsda" qaysi cholg'u yakkanavozlik qiladi?

- a) Doyra
- b) Qo'shnay
- c) Litavra
- d) Nay

12. "Yaponcha raqsda" qanday rivojlanish turi qo'llanilgan?

- a) Variantli-variatsiya
- b) Polifonik
- c) Turg'unlik
- d) Akkordlar

13. "Arabcha raqs" qanday shaklda yozilgan?

- a) Kontrast tarkibli
- b) Sanata shakli
- c) Ronda shakli
- d) Variatsiya shakli

14. "Arabcha raqsda" asosiy mavzuni qaysi cholg'u ijro etadi?

- a) Surnay va karnay
- b) Nay va qo'shnay
- c) Fleyta-pikkolo va klarnet
- d) Qonun va g'ijjak

15. "Arabcha raqsda" dinamik rivojlanish qanday uslubda amalga oshiriladi?

- a) Notalar cho'zimini uzaytirish
- b) Jadallashib boruvchi uslub
- c) Ritmik ostinata
- d) Tovush muddatini uzaytiruvchi

16. "Arabcha raqs"ning 1-raqamini qaysi cholg'u ijro etadi?

- a) G'ijjak I va g'ijjak II

- b) Doyra va uchburchak
 - c) Baraban va buben
 - d) Chang va qonun
17. “Oydin kecha” asari qaysi xalq kuyiga asosan yozilgan?
- a) Xitoy xalq kuyi
 - b) Koreys xalq kuyi
 - c) Qoraqalpoq xalq kuyi
 - d) Turk xalq kuyi
18. “Oydin kecha” asari qaysi shaklda yozilgan?
- a) Ikki qismli shaklda
 - b) Uch qismli shaklda
 - c) Fuga shaklida
 - d) Ronda shaklida
19. “Oydin kecha” asarini qaysi cholg’u mohirona ijrosi bilan boshlaydi?
- a) Nay-pikkolo
 - b) Chang
 - c) Qonun
 - d) Doyra
20. “Oydin kecha” asarida kompozitor qaysi ijro usulini qo‘llaydi?
- a) Pitsicata changda
 - b) Pauza g‘ijjak I va g‘ijjak II da
 - c) Legato doyrada
 - d) Staccato klarnetda
21. “Arirang” asari qaysi xalq kuyiga asoslangan?
- a) Yapon xalq kuyi
 - b) Tojik xalq kuyi
 - c) Koreys xalq kuyi
 - d) O‘zbek xalq kuyi
22. “Arirang” asarida kompozitor milliy kolloritni qanday usulda takidlaydi?
- a) Tovushlar takrorlanishi
 - b) Polifonik birikma
 - c) Pauza usullari
 - d) Ritm usullari
23. “Arirang” asarining 7-raqamida kulminatsiyaga qanday erishiladi?
- a) Kontrapukt tamoyiliga asoslangan holda
 - b) Tovushlar takrorlanishi
 - c) Unison faktura
 - d) Pauzalar
24. “Arirang” so‘zining ma’nosi nimani anglatadi?

- a) Davlat nomi
 - b) Vodiy manzarasi
 - c) Ayol ismi
 - d) Buyuk tog‘ obrazi
25. “Arirang jozibalari” asari qachon yozilgan?
- a) 2005-yilda
 - b) 2007-yilda
 - c) 1995-yilda
 - d) 1998-yilda
26. “Arirang jozibalari” asari qaysi manba asosida yozilgan?
- a) O‘zbek kuyi “Norim- norim”
 - b) Yapon qo‘shig‘i “Sakura”
 - c) Koreys xalq qo‘shig‘i “Arirang”
 - d) O‘zbek kuyi “Tanovar”
27. “Arirang jozibalari” asarida qaysi cholg‘u asosiy vazifani bajaradi?
- a) Dutor-alt
 - b) Dutor-bas
 - c) Dutor-kontrabas
 - d) Dutor-prima
28. “Bayramona” asari qachon yozilgan?
- a) 1991-yilda
 - b) 1996-yilda
 - c) 2000-yilda
 - d) 2006-yilda
29. “Bayramona” asari qaysi jamoa uchun yozilgan?
- a) So‘g‘diyona
 - b) Navroz
 - c) Turkiston
 - d) O‘zbekiston solistlari
30. “Bayramona” asari necha qismdan iborat?
- a) 3
 - b) 2
 - c) 4
 - d) 5
31. “Bayramona” asarining birinchi qismida kompozitor qanday nusiqani qo‘llaydi?
- a) Ammetrik musiqani
 - b) Metric musiqani
 - c) Biometric musiqani
 - d) Fonometrik musiqani
32. “Bayramona” asarining tayanch toni?
- a) Fa

- b) Mi
 - c) Re
 - d) Sol
33. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisi nechanchi yilda yozilgan?
- a) 2005-yil
 - b) 2010-yil
 - c) 1998-yil
 - d) 2008-yil
34. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisi qaysi xalqlarning kuylari asosida tuzilgan?
- a) Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari xalqlarining kuy va qo‘shiqlari asosida
 - b) Yapon kuy va qo‘shiqlari asosida
 - c) Arab kuy va qo‘shiqlari asosida
 - d) Uyg‘ur kuy va qo‘shiqlari asosida
35. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisi uchun manba?
- a) “Sindbad”
 - b) “Ming bir kecha”
 - c) “Sindbad sayohati”
 - d) “Moviy taqinchoq”
36. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisining kirish qismida qaysi cholg‘u yakkanavozlik qiladi?
- a) G‘ijjak-alt
 - b) G‘ijjak-II
 - c) G‘ijjak-I
 - d) G‘ijjak-bas
37. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisining 1-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Tojik xalq kuyi
 - b) Arab xalq kuyi
 - c) O‘zbek xalq kuyi
 - d) Qirg‘iz xalq kuyi
38. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisining 6-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Qirg‘iz xalq kuyi
 - b) Qozoq xalq kuyi
 - c) O‘zbek xalq kuyi
 - d) Xitoy xalq kuyi
39. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrisining 10-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Qirg‘iz xalq kuyi
 - b) Tojik xalq kuyi
 - c) Arab xalq kuyi

- d) O‘zbek xalq kuyi
40. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrising 12-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Arab xalq kuyi
 - b) Rus xalq kuyi
 - c) O‘zbek xalq kuyi
 - d)Qirg‘iz xalq kuy
41. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrising 16-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Qozoq xalq kuyi
 - b) Rus xalq kuyi
 - c) O‘zbek xalq kuyi
 - d) Qirg‘iz xalq kuy
42. “Shaxrizoda hikoyalari” popurrising 22-raqamida qaysi xalq kuyi yangraydi?
- a) Qozoq xalq kuyi
 - b) Rus xalq kuyi
 - c) O‘zbek xalq kuyi
 - d) Qirg‘iz xalq kuy
43. “Orzu” asari qachon yozilgan?
- a) 2001-yilda
 - b) 2005-yilda
 - c) 2002-yilda
 - d) 2009-yilda
44. “Orzu” asari qanday obrazda yozilgan?
- a) Romantik
 - b) Progmantik
 - c) Zaharxanda obrazida
 - d) Salbiy
45. “Orzu” asarida qanday tamoyil qo‘llanilgan?
- a) Mazaikali
 - b) Davriy
 - c) To‘xtovsiz
 - d) Zamin tovushlari
46. “Orzu” asarining boshlang‘ish taktida qaysi cholg‘ular usul vazifasini bajaradi?
- a) Tamburin va nog‘ora
 - b) G‘ijjak va dutor-alt
 - c) Nay va qonun
 - d) Doyra va buben
47. “Orzu” asarida muhim ifodaviy vosita?
- a) Pauza
 - b) Garmoniya

- c) Polifoniya
 - d) Tembr
48. “Tong navosi” asari qanday shaklda yozilgan?
- a) Ikki qismli shaklda
 - b) Uch qismli shaklda
 - c) Sonata shaklida
 - d) Rondo shaklida
49. “Tong navosi” asarida kompozitor qaysi cholg‘uni yakkanavoz sifatida qo‘llaydi?
- a) Rubob-primani
 - b) Afg‘on rubobni
 - c) Qashqar rubobni
 - d) Changni
50. Kompozitor “Tong navosi” asarida qanday tovush qatorini qo‘llaydi?
- a) Diatonik
 - b) Xromatik
 - c) Polifonik
 - d) Pentatonik
51. “Tong navosi” asarining repriza qismida qaysi cholg‘ular yakkanovozlik qilishadi?
- a) Rubob-prima va qashqar rubobi
 - b) Qonun va chang
 - c) Nay va g‘ijjak-bas
 - d) Klarnet va doyra
52. “Gullar raqsi” asarini qaysi cholg‘u boshlab beradi?
- a) Dutor-alt
 - b) Tabla
 - c) Marimba
 - d) Ksilofon
53. “Gullar raqsi”da raqs xarakterini ifodalash uchun kompozitor qanday ijro usulini qo‘llaydi?
- a) Arko qonunda
 - b) Pitsicato changlarda
 - c) Legato nayda
 - d) Kol legno g‘ijjaklarda
54. “Gullar raqsi”da milliy kolortni ifodalash uchun qanday fakturadan foydalanilgan?
- a) Oktava unisonligi
 - b) Tovushlar ketma-ketligi
 - c) Polifonik uslub
 - d) Garmonik uslub
55. “Gullar raqsi” qanday o‘lchovda yozilgan?

- a) 3/4
 - b) 2/4
 - c) 7/8
 - d) 4/4
56. “Gullar raqsi”da nay kodensiyasiga qaysi cholg‘ular jo‘rnavozlik qiladi?
- a) G‘ijjaklar
 - b) Qonun
 - c) Afg‘on-rubob
 - d) Dutor
57. “Oqshom sabolari” asari nechanchi yilda yozilgan?
- a) 2001-yilda
 - b) 2005-yilda
 - c) 2002-yilda
 - d) 2009-yilda
58. “Oqshom sabolari” asari qanday xarakterda yozilgan?
- a) Tango
 - b) Vals
 - c) Marsh
 - d) Polonez
59. “Oqshom sabolari” asarida asosiy kuy ijrosi kimga yuklatilgan?
- a) Rubob-prima
 - b) Rubob-sekunda
 - c) Dutor-bas
 - d) Dutor-kontrabas
60. “Oqshom sabolari” asarida kompozitor chang va qonunda qanday usulni qo‘llaydi?
- a) Polifonik birikma usuli
 - b) Pauza usuli
 - c) Qosh notali glissando
 - d) Ritm usuli
61. “Toshkent fasllari” sikli qaysi sanaga bag‘ishlab yozilgan?
- a) Toshkentning 2200 yilligiga
 - b) Turkiston sarayoning ochilishiga
 - c) ShHT sammitiga
 - d) Toshkentning 2200 yilligiga
62. “Toshkent fasllari” asarining janri ?
- a) Poema
 - b) Simfoniya
 - c) Musiqiy manzaralar
 - d) Sonata

63. “Toshkent fasllari” nechi qismdan iborat?
- a) 3 qism
 - b) 12 qism
 - c) 20 qism
 - d) 4 qism
64. “Toshkent fasllari” asarining birinchi qismi qanday nomlanadi?
- a) Yoz oqshomi
 - b) Qor bo‘ron
 - c) Kuz manzarasi
 - d) Qish tongi
65. “Toshkent fasllari” asarining ikkinchi qismi qanday nomlanadi?
- a) Bahor tongi
 - b) Yoz oqshomi
 - c) Favoralar raqsi
 - d) Paradlar hiyoboni
66. “Toshkent fasllari” asarining final qismi qanday shaklda yozilgan?
- a) Variatsiya shaklida
 - b) Sonata shaklida
 - c) Ronda shaklida
 - d) Bas ostinato shaklida
67. “Toshkent fasllari” asarida kompozitor quyidagi qaysi yozuv texnikasini qo‘llaydi?
- a) Sonorika
 - b) Puantalizm
 - c) Repititiv texnika
 - d) Kombinator texnika
68. “Toshkent fasllari” asarida kompozitor qaysi o‘zbek klassik kuylarini qo‘llaydi?
- a) Ushshoqi Sodirxon va Zebo Pari
 - b) Mirzadavlat va Nasri bayot
 - c) Gulbahor va Tanovar
 - d) “Toshkent Iroqi” va “Toshkent ifori”

II – BOB

HABIBULLA RAHIMOVNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI KAMER ORKESTRI UCHUN YARATGAN ASARLARI

H.Rahimovning “**Sirli tun**” fantaziyasi 2004-yilda “So‘g‘diyona” jamoasi uchun maxsus yaratilgan bo‘lib, u o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida yangi yo‘nalish hisoblanadi. Muallif ushbu asarida tunda sodir bo‘ladigan hodisalarni ifodalash maqsadida zamonaviy yozuv texnikasidan unumli foydalanadi. Ushbu asarni yozishda kompozitor fransuz va ispan cholg‘u musiqasi an‘analariga, aniqrog‘i M.Rovelning “Tungi ko‘rinishlar” va M.de Falyaning “Ispaniya bog‘larida tun” nomli asarlariga asoslangan holda yaratadi.

Shuni ta’kidlash lozim-ki, asar yangi turdagi tematizm, ya’ni kichik intonatsion ohanglarni ijro etish orqali boshlanadi. Ushbu kichik-kichik kuy bo‘laklari xuddi havoda osilib qolgandek, barcha tinglovchilarni topishmoq singari o‘ziga jalb etadi:

Rubato

The musical score for the 'Rubato' section is presented in a ten-staff format. The instruments included are Nay, Qo'shnay, Chang, Qonun, Prima rubob, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor alt, Dutor bas, and Dutor k.b. The score is written in 4/4 time and features a variety of dynamic markings, including *mf*, *sf*, *f*, and *accel.*. The notation includes notes, rests, and articulation marks such as *pizz.* and *mf³*. The score is designed for a chamber orchestra, with some instruments playing in unison and others in harmony.

Asar *Rubato* sur'atida erkin ijro etiladi. Boshlang'ich mavzular sirli tun manzarasini yaratish uchun yorqin hamda karnay tembriga o'xshash tovushlarning sadolanishini talab etadi. To'rtinchi taktdan xuddi tungi shamolning birdan kuchayishi natijasida daraxt barglarining shiddat bilan qimirlagani singari musiqa sur'ati ham tezlashadi. Bu holat aynan ruboblar va dutorlarda amalga

oshiriladi. Yettinchi taktdan nay, qo‘shnay, chang, qonun va torli cholg‘ular guruhining aleatorika figuratsiyalari bilan qo‘shilib borishi orqali kuchli *sf* nyuansida orkestrning ijrochilik mahorati namoyish etiladi:

The image shows a musical score for a woodwind ensemble. It consists of eight staves, each labeled with an instrument: Nay, Qo'shnay, Chang, Qonun, Prima rubob, Qashqar rubob, Afg'on rubob, and Dutor alt. The music is written in 4/4 time and features complex rhythmic patterns, including tremolos and sixteenth-note runs. Dynamic markings such as *mf* (mezzo-forte) and *sf* (sforzando) are used throughout the score to indicate changes in volume. The key signature has one sharp (F#).

Musiqaning kelgusi rivoji ayrim cholg‘ular shuningdek, rubob, dutor, zarbli cholg‘ularning qo‘shilishi va to‘xtashiga asoslangan. Eng qizig‘i shundaki partituraga g‘ijjaklar oilasi kiritilmagan. O‘rta va yakunlovchi qismlardagi ovozlarga jo‘r bo‘lishi uchun kompozitor tarelka cholg‘usidan foydalanadi. Asarda musiqiy rivojlov cholg‘u yoki ularning oilasi orqali dinamik jihatdan bir-birini to‘ldirib boradi. Shu tariqa ijrochilarning faolligi, o‘ziga xos xususiyati oshib boradi.

Orkestr ijrochiligidagi murakkabliklardan biri – bu cholg‘u guruhlar va ovozlarning birdaniga o‘zgarishi, tiniq fakturadan birdaniga *tutti* bo‘lib yorqin namoyon etilishidadir. H.Rahimov bu yerda kutilmaganda dinamika va *tutti* jihatdan asar kompozitsiyasining asosiy mavzusini intonatsion ohang tarzida eslatib o‘tadi.

“Sirli tun” partiturasida badiiy asar xarakterini ifodalovchi turli xil o‘ziga xos ijro usullari qo‘llanilgan. Bular har xil trellar, *glissando* hamda sozandalarning ovoz orqali jo‘r bo‘lishidir. Bularning barchasi o‘z o‘rnida o‘ziga xos voqaealarni ifoda etish uchun qo‘llanilgan:

Musical score for an orchestra of Central Asian instruments. The score includes parts for Nay, Qo'shnay, Chang, Qonun, Prima rubob, Qashqar rubob, Afg'on rubob, Dutor alt, Dutor bas, and Dutor k.b. The music is in 4/4 time and features various techniques like trills (tr), glissandos (Xo), and dynamic markings (ff, sf).

Bunday usullarni V.Spivakov o‘z orkestrida, O‘zbekistonda M.Bafoyev “Buyuk ipak yo‘li mening tasavvurimda” asarida, H.Rahimov esa tun manzarasini namoyon etishda yangi ifoda vositalaridan foydalangan holda qo‘llaydi. U shuningdek cholg‘ular sadosini yanada boyitish maqsadida “Xo, Xa, Xu, O” so‘zlaridan ham foydalanadi. “Xa, Xu, Xa, Xa, Xu” so‘zlarining chang va qonun *glissandosi* bilan birin-ketin ijro etilishi keng qamrovli tovush maydonini hosil qiladi:

Musical score showing the vocal line and instrumental accompaniment for the "Sirlil tun" piece. The vocal line includes lyrics: xa xy xa xa xy. The instrumental parts for Nay, Qo'shnay, Chang, and Qonun are shown with dynamic markings (ff).

“Sirlil tun” asarida kompozitor zamonaviy yozuv texnikasi, ya’ni nazorat qilingan aleatorikani o‘rta qismida yorqin kulminatsiyani amalga oshirish hamda shamolning birdan kuchayishini ifodalash uchun qo‘llaydi. Aleatorik sadolanish afg‘on ruboblaridan boshlanib, keyinchalik asta-sekin unga yuqori registda barcha cholg‘ular qo‘shiladi va nihoyat butun partituraning egallaydi.

E'tiborga loyiq tomoni shundaki, butun orkestr to'xtaganda faqatgina tarelka cholg'usi va "O" ovozi o'z ijro mahoratini namoyon etadi. So'ngra barcha cholg'ularda *sf* dinamikasida har xil o'lchovdagi notalar ijro etiladi. Bu hol, ya'ni tinchlikdan g'ala-g'ovurga o'tish tinglovchining e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Asarning yakunlovchi qismidagi dutor-kontrabas cholg'usining mohirona kadensiyasi e'tiborni o'ziga jalb etadi. Ushbu asarda zarbli cholg'ular ham o'z mahoratini namoyon etadi. H. Rahimov poliritmiyani yakka cholg'ularda, shuningdek turli cholg'ular hamohangligida qo'llaydi. "Sirli tun" asarining yakunida sirli ohanglar tungi tinchlik sukunatida barham topadi.

H. Rahimovning ushbu asari zamonaviy kompozitorlik fikrlari va yozuv texnikasini namoyon etadi. Bu fantaziya kompozitorlik ijodiyotining yuqori cho'qqisi sifatida baholanib, xalq cholg'ularining beqiyos, kashf etilmagan ijro imkoniyatlarini ochishga qaratilgan bo'lib, unda sonor texnikasidan foydalanilganligi, yangi tembr xususiyatlarini izlab topganligidan dalolat beradi.

Habibulla Rahimovning tojik kuylari asosida dutor-alt cholg'usi uchun yozgan "**Dutor fantaziyasi**" "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri uchun maxsus yaratilgan. Asar dramaturgiyasi mavzuning erkin bir qismli shakliga taalluqli bo'lgan variantli improvizatsiya asosida rivojlangan. Fantaziya *Sostenuto*dan *Piu mosso*ga, asarning kulminatsion nuqtasiga, ya'ni mahoratli kadensiyaga olib keluvchi dinamik rivojlanish yo'nalishiga ega. Kompozitor fantaziyada milliy ijrochilik an'anasiga va cholg'uning ijrochilik xususiyatlariga xos bo'lgan ikki ovozlilikni qo'llaydi. Asarda ijrochilik va dirijyorlik nuqtai nazardan asosiy vazifalardan biri bu - mozaikaga o'xshash kichik qismlarni dirijyorning erkin qo'l harakati orqali umumlashtirilgan holda ijro etishdan iboratdir. Fantaziya ansambl jihatdan juda murakkab bo'lib, yakkanavozdan o'ta e'tiborli bo'lishni talab qiladi. Asar dramaturgiyasi lirik kadensiyaga olib keluvchi shiddatli ritmik murakkabliklar asosida rivojlanadi. Orkestr partiyasi ritmik jihatdan juda aniq bo'lgan sinxron ijroni talab qiladi. Shuningdek garmoniya vertikal jihatdan sof sadolanishi lozim.

Fantaziya yakkanavoz dutorchining tinglovchilarni musiqiy asar dunyosiga olib kiruvchi, *Sostenuto* sur'atida yozilgan kichik kirish qismi bilan boshlanadi. Shuni ta'kidlash joiz-ki, asar faqatgina dutor-alt cholg'usiga yozilgan bo'lishiga qaramay mahoratli sozandalar, "Nihol" davlat mukofoti sovrindori, xalqaro va respublika ko'rik-tanlovlarining sovrindori Ulug'bek Yunusov (an'anaviy dutor) va Gulnoza Jabborova (dutor-alt) lar uni ikkita cholg'uda katta muvaffaqiyat bilan ijro etishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu fantaziya ijrosi, xalq cholg'ularida yangicha sadolanish imkoniyatlarini ochib berdi. Shu bilan birga Fantaziya asari XXI asr o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik san'atida yangi an'anaga asos soldi.

Asarning boshlanishi improvizatsion xarakterga ega bo'lib, rubob-prima va dutor-bas ijrolari bilan to'ldirilgan kadensiyani eslatadi:

4/4 Sostemuto

Solo dutor
Chang
Qonun
Rubob prima
Qashqar rubob
Afg'on rubob
Dutor alt
Dutor bas
Dutor kontrabas
Tarelkalar

2-raqamda, ya'ni *Allegro moderato* musiqa xarakteri birdaniga o'zgarib, raqsona xarakterni kashf etuvchi asosiy mavzu boshlanadi. Tablaning jo'shqin usuli dutorlar ijrosidagi kichik sekundalardan iborat bo'lgan kuyning raqsona xarakterini ta'kidlaydi. Yuqori registrdagi quyiga yo'naltirilgan nayning chiroyli ijrosi ma'noli sadolanishni kuchaytiradi:

Solo dutor
Nay
Tabla

Fantaziya ijrosidagi murakkabliklardan biri, bu usullarning ritmik jihatdan o'zgarishidir. 7-raqam *Piu mosso* 6/8 o'lchovida turli registrlarda yakkanavoz va orkestrning savol-javobi, rivojlanish dinamikasi va chiroyli tembrni namoyon etadi. 10-raqamda *P* dan *f* gacha bo'lgan nozik dinamik belgilar va *pizzicato*, *arco*, *legato* kabi turli zarblar e'tiborni o'ziga jalb etadi. 13-raqam *Piu mosso* 2/4 o'lchovida punktir usullar asar sur'atining jadallashishi va shiddatli tus olishiga yo'naltirilgan. Sinkopali aksentlar musiqa harakatining faollashishini ta'kidlaydi. 18-raqamda kadensiya erkin, ixcham va to'liq ovoz bilan ijro etiladi:

Cadenza
ad lib

Solo dutor

19-raqamda polifonik fakturaga, ya'ni mizrobli cholg'ular partiyasidagi zamin tovushlari va kuychan melodik yo'nalishni hamohanglikda ijro etilishiga ahamiyat berish kerak. Mordentlar kuchli hissa hisobiga kuyning tarkibiy qismi sifatida juda mayin ijro etiladi. *Legatoni* nafis va ravon ijro etish lozim. Chang va qonun *glissandos*i umumiy tovush ko'lamidan ajralmay, balki ular bilan uyg'unlashgan holda yangrashi kerak. 22-raqam, ya'ni kodada kompozitor yakkanavozlar va orkestrning yorqin sadolanishi uchun *tuttini* qo'llaydi:

Solo dutor

Hañ

Chang
pizz.
f

Qonun

Rubob
prima

Qashqar
rubob
f

Afg'on
rubob
f

Dutor
bas
f

Dutor
kontrabas
f

Трещетка
f

Kodada turli cholg'ular guruhining kuchli *ff* ga olib keluvchi, yuqoriga yo'naltirilgan harakatida dinamikaning kuchayishi va butun orkestrning bir butun sadolanishga erishishini yaxshi ko'rsatmoq lozim. Fantaziya qudratli va yorqin *fff* bilan yakunlanadi.

“To'y hangomalari” fantaziyasi H.Rahimov tomonidan 2005-yilda yozilgan. O'zbek to'ylari o'zining tarixiy davrlar mobaynida saqlanib kelinayotgan

rasm-rusmlari bilan kompozitorlarni o‘ziga jalb etadi. Ma’lumki T.Qurbonov 1977-yilda sinfonik orkestr uchun yaratgan “To‘yona” (prelyudiya va fugetta)sida o‘zbek to‘yini jiddiy polifonik shaklda yozgan. Undan farqli o‘laroq H.Rahimov *pp* dan *ff* gacha dinamik jihatdan kuchayib boruvchi erkin improvizatsion shaklda yozishni maqul ko‘rdi. Asar ranglar uyg‘unligidagi bo‘yoqlarda, zamonaviy ifoda vositalari (sonor va boshqalar)dan unumli foydalangan holda juda chiroyli yaratilgan. Asarni boshlovchi nog‘ora va tarelka usullari improvizatsion aleatorik kompozitsiyani biriktiruvchi muhim vazifani bajaradi. Usul sadolari ostida surnayning kuyi boshlanadi va u o‘ziga xos ovoz tarovati bilan barchani tantanali to‘y tadbiriga chorlaydi:

Andante

The musical score is for the beginning of the piece 'To'yona' by T. Qurbonov, marked 'Andante'. It consists of four staves: Surnay (Soprano Saxophone), Nog'ora (Tambourine), Surn. (Soprano Saxophone), and Nog'. The Surnay part starts with a whole note G4, followed by quarter notes A4, B4, and C5. The other instruments provide a rhythmic accompaniment. Dynamics include *p* and *pp*.

Kompozitr orkestr guruhlarining bir-birini to‘ldirib borishini mahorat bilan qo‘llab, harakatli dinamikani yaratadi. Kulminatsiya qismidagi nayning mohirona ijrosi musiqaga alohida joziba baxsh etadi.

3-raqamdan asarning yangi qismi boshlanadi. Bu yerda o‘lchov va ritmik tuzilish o‘zgaradi va birinchi o‘rinni yakkanavoz surnay egallaydi:

The musical score is for the third measure of the piece 'To'yona'. It features three staves: Surnay (Soprano Saxophone), Dutor alt (Alto Saxophone), and Dutor bas (Bass Saxophone). The Surnay part starts with a whole note G4, followed by quarter notes A4, B4, and C5. The Dutor alt part plays a rhythmic pattern of eighth notes. The Dutor bas part plays a rhythmic pattern of eighth notes. Dynamics include *p* and *p pizz.*

Ushbu kuyning rivojlanishi (7-raqam) yorqin kulminatsiyaga olib keladi. Kompozitor doyra tremolosi ostida chang, qonun, prima va qashqar ruboblar, dutor-bas hamda g‘ijjak I va II larda yangraydigan, har taktida almashib turadigan turli ohang shakllari: kvintol, sekstol, septol ijrosini birlashtiradi. Ularga afg‘on rubobi va litavra *glissandoli tremolosi* bilan qo‘shiladi. G‘ijjak-bas va kotrabaslar zamin akkordlari bilan jo‘r bo‘ladi. Bunday rang-barang shakllarning birgalikdagi ijrosi sozandalar va dirijyordan katta mahorat va o‘ta ziyaraklikni talab etadi. Yuqori registrda yakkanavoz nayning treli *sf* nyuansida juda yorqin tarzda yangraydi:

The image shows a musical score for the piece "To'y hangomalari". The score is written for a large ensemble of instruments. The instruments listed on the left are: Nay, Chang, Qonun, Rubob prima, Qashqar rubob, Afig'on rubob, Dutor (top and bottom), Timpani, Buben, Surnay, G'ijjak I, II, G'ijjak bas, and G'ijjak k-b. The score is in 8/8 time and includes dynamic markings like 'f' and 'tr.'.

Ushbu kompozitor tanlagan tantanali orkestr bo‘yoqlari va aleatorik kulminatsiya umumiy xursandchilik ifodasini namoyon etadi. Orkestrning yarqiroq *glissandoli tuttisi* emotsional ko‘tarinkilikka olib keladi. Ayniqsa, 8-raqamda sozandalar *f* nyuansida ha, ha, ha, ha so‘zlarini ifoda etganda bayramona xursandchilik kompozitor qat’iy nazorat qilgan aleatorik oqim bo‘yicha jadallashib boradi.

“To‘y hangomalari” fantaziyasi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun kompozitorlik ijodiyotida yangi yo‘nalish ochib berdi. Asarda cholg‘ular tembrlari yangicha tarzda yoritilgan, ularning milliy tabiati zamonaviy musiqiy tafakkur darajasini namoyon etadi. Milliy an‘ana hayoti XXI asrda H.Rahimov

asarlarida yana bir ijodiy yechimga ega bo'ldi va bu tajriba yangi avlod kompozitorlari tomonidan davom ettiriladi.

H.Rahimov “XX asr sadosi” nomli asarini “So‘g‘diyona” orkestri uchun maxsus yaratgan. Ushbu yumoristik xarakterga ega bo‘lgan asar yozuv mashinkasi va kamer orkestri uchun yozilgan hamda 2007-yilda sahna yuzini ko‘rdi. Shuni ta’kidlash joiz-ki, yozuv mashinkasini orkestrda qo‘llash tajribasi XX asrning 20-yillarida ajoyib kompozitor Erik Sati tomonidan amalga oshirilgan. U o‘zining “Parad” nomli baletining partiturasiga yozuv mashinkasini kiritadi va ushbu asar ilk bor 1924-yilda Parijda ijro etiladi. Ushbu balet sirk artistlarining ajoyib ijro dasturlarini namoyon etadi. Tomoshabinlar ko‘z o‘ngida dorboz, akrobat va masxarabozlar o‘z mahoratlarini namoyon etishadi, kompozitor esa yozuv mashinkasini tomoshabinlar e’tiborini oziga jalb etish uchun qo‘llaydi.

“XX asr sadosi” nomli asar tinglovchilarda katta taasurot qoldirishi uchun H.Rahimov barcha turdagi damli, torli va zarbli cholg‘ulardan tarkib topgan kamer orkestridan unumli foydalanadi. Asarga tantanavorlik ruhini baxsh etish uchun kompozitor butun orkestrni *tutti* bo‘lib *f* nyuansida asosiy mavzuni ijro etishga jalb etadi. Quyida kirish qismidan parcha berilgan:

Allegro moderato

Asar kirish qismi va Kodadan iborat 3 qismli reprizali shaklda yozilgan. Kirish qismi butun orkestrning uyg‘unlashgan aniq ijrosi, serharakat, faol *tuttisi* bilan asar xarakteriga olib kiradi va birinchi raqamning ikkinchi taktidan yozuv mashinkasining solosi boshlanadi:

1-raqamda orkestr tovush kuchi ancha pasayadi va u jo‘navozlik vazifasini bajarishga o‘tadi, uning fonida changning kichik bir taktli solosini qo‘llab turuvchi, replika sifat ijro namoyon bo‘ladi. 2-raqamdan changga qonun cholg‘usi ham qo‘shiladi. Shu tariqa tovushlarning qaytarilishi hisobiga partitura quyuvlashib boradi. 4-raqamdan kichik mavzular orkestr jo‘rligida rubob-prima partiyasiga o‘tadi. Telefondagi qo‘ng‘iroq ovozlari kompozitor nayning yuqori registrdagi treli orqali amalga oshiradi:

1 ⊗ telefon

Solo

Nay

Qo'shnay

Chang

Qonun

telefonni oladi

Solo

Nay

Q.nay

Chang

Qonun

So'z:
ALLO

Meno

gpiradi

qog'ozlarni varaqlaydi

Solo

Nay

Q.nay

Chang

Qonun

7-raqamdan vazminroq sur'atda o'rta qism boshlanadi. Yakkanavoz yozgan qog'ozlarini varaqlay boshlaydi. Ushbu tovushlarni H.Rahimov chang, qonun, birinchi va ikkinchi g'ijjaklar va g'ijjak-altlardagi sekunda-oktavalı sakramalar orqali ifodalab beradi:

Orkestr fakturasi dinamik jihatdan kuchayib boradi. So‘ngra 8-raqamda yana yozuv mashinkasi ijro eta boshlaydi, orkestr esa jo‘rnavezlik vazifasiga o‘tadi. O‘rta qism sozandalardan uyg‘unlashgan ansambl ijrosini talab qiladi. 9-raqamda yana birinchi sur‘at paydo bo‘ladi va repriza boshlanadi. Bu gal kichik replikalar nay, qo‘shnay va asta-sekin chang, qonun va rubob-primalarda ham ijro etiladi. Keyin bu mavzular butun orkestrda yangraydi. 11-raqamdan asar sur‘ati tezlasha boshlaydi. Butun orkestrda savol-javob tariqasidagi kichik-kichik ohanglar ijrosi boshlanadi:

Ovozni yanada kuchaytirish maqsadida kompozitor qonunda oktava orali-g‘ida yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan glissandoni qo‘llaydi. Bularning barchasi yorqin dinamik bo‘yoqlardagi kodani ifodalaydi. Ushbu asar ijrochilik jihatdan murakkab bo‘lib, har bir sozandadan o‘ta e‘tiborli bo‘lishni talab qiladi. Ularda ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, tovushlar mutanosibligini saqlay olish va ijro mahoratini oshirishga yordam beradi.

“XX asr sadosi” asarida o‘zbek xalq cholg‘ulari yozuv mashinkasi bilan musobaqalashayotganday aks ettirilgan. Ushbu asar teatrlashtirilgan bo‘lib, unda tomoshabinlar nafaqat musiqani tinglaydilar, balki ko‘z o‘ngida sodir bo‘la-yotgan voqealardan xabardor bo‘lganliklari sababli, asarni o‘zgacha tarzda qabul qiladilar. Tinglovchilarga ko‘tarinki ruh bag‘ishlaganligi tufayli ham bu asar konsert dasturlaridan alohida o‘rin egallaydi. Asar zamonaviy, yangi musiqa tilida yozilganligidan qat‘iy nazar, orkestr uni mohirona ijro etishga muvaffaq bo‘ldi.

“Sakura” juda ajoyib asar bo‘lib, unda yapon qo‘shig‘i mavzusiga variat-siyalar namoyon etilgan. Boshida kompozitor mavzuni ifoda etadi va u unison

tarzda nay va qo‘shnayda ijro etiladi. Mavzu o‘n to‘rt taktdan iborat bo‘lib, u minor tonallikda yapon ladi pentatonika qonuniyatlariga asoslangan holda diatonik tarzda yorqin yarim tonliklar harakatiga asoslangan. Qo‘shiq tuzilishi har gal yutuqlarga olib keluvchi ohang rivoji va takrorlanish xususiyatlariga ega. Shu bilan birga qo‘shiq kuyi ajoyib garmoniya va yakunlangan butunlik bilan ajralib turadi:

Sostenuto ♩ = 70

1-raqam birinchi variatsiya. Kompozitor nay va qo‘shnay kuyini unison tarzda berib, 3-raqamga qadar uni birinchi variatsiyaga qo‘shmaydi va unga betakror tembr tarovatini baxsh etadi. Shu tariqa nay va qo‘shnay birinchi variatsiyada ishtirok etmaydi. Mavzu torli-chertma cholg‘ularda boshqa registrda va boshqa balandlikda, aynan kvinta yuqorida yangraydi. Sakkiztalik nota orqali zamin tovushlarini taratuvchi jo‘rnovozlik vazifasini bajarayotgan cholg‘ular uyg‘unligida doyra usuli katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzu fakturaning naqshinkor rivoji asosida faollashadi. 3-raqamda kuyning rang-barang jarangiga nay qo‘shiladi va rivojlanish jarayonida 4-raqamdan ikkinchi variatsiya boshlanadi. Ushbu variatsiya original tembr bo‘yoqlarini namoyish etish nuqtai nazaridan juda qiziqarli. Chang 16 talik notalar orqali ohangga berilgan shaklni ijro etadi va uni oktava yuqorida qaytaradi. Oktava yuqorida qaytariladigan ohanglar oktava unisonligida qonunda takrorlanib, o‘ziga xos chiroyli ohang taratadi:

Allegro Moderato

Ushbu variatsiya mavzuning alohida elementlarini rivojlantiruvchi xususiyatga ega. Chang va g‘ijjklarda chiroyli va mohirona passajlar ijro etiladi. Kompozitor cholg‘ulashtirishda o‘z mahoratini namoyon etib, har bir cholg‘uning ijrochilik imkoniyatlarini ochib beradi:

Allegro

The musical score is for a chamber orchestra and is divided into three measures. The first measure is in 4/4 time, the second in 6/4, and the third in 4/4. The instruments and their parts are as follows:

- Chang:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- Qonun:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- Rubob prima:** Treble clef, 4/4 time, playing a melodic line with eighth notes.
- Qashqar rubob:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- Afg'on rubob:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- Dutor (treble):** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- Dutor (bass):** Bass clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- T-no:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- T-ro:** Treble clef, 4/4 time, playing a series of chords.
- G'ijjak I:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- G'ijjak II:** Treble clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- G'ijjak bas:** Bass clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.
- G'ijjak k-b:** Bass clef, 4/4 time, playing a rhythmic pattern of eighth notes.

Asarning kulminatsiya qismi, ya'ni 8-raqam (IV-variatsiya)da usul tuzilishi unisonda berilgan bo'lib, cholg'ular almashinuvi yorqin tembrlarda yangraydi. Mavzu mahoratli passajlar bilan galmagal ijro etilib, orkestr *tuttisiga* olib keladi va u yerda mavzu va passaj birgalikda ijro etiladi. Asar koda bilan yakunlanadi va unda olti takt davomida sadolanuvchi mavzu nay va qo'shmayda ijro etiladi.

SAVOLLAR:

1. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining kichik tarkibini tariflab bering?
2. H.Rahimov o'zbek xalq cholg'ulari orkestri kichik tarkibini qanday talqin qiladi?
3. H.Rahimovning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri kichik tarkibi uchun yaratgan qaysi asarlarini bilasiz?
4. H.Rahimovning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri kichik tarkibi uchun yaratgan asarlaridan birini gapirib bering?

TOPSHIRIQLAR:

1. H.Rahimovning kichik tarkib uchun yaratilgan asarlarini partitura bilan birga tinglang (audio yoki video yozuvini) va tahlil qiling.
2. H.Rahimovning kichik tarkib uchun yaratgan asarlaridan birini tahlil qiling va yozma ravishda topshiring.

TAYANCH IBORALAR:

Pentatonika ladi, koreys ohanglari, ramziy ishora, aleatorika figuratsiyalari, mohirona kadensiya, ijro imkoniyatlari, sonor texnikasi, raqsona xarakter, punktir usullar, polifonik faktura, ranglar uyg'unligi, aleatorik kompozitsiya, yozuv mashinkasi.

ADABIYOTLAR:

1. Лутфуллаев А. История исполнительства на узбекских народных инструментах. - Т., 2010.
2. Ливиев А. Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан (устная и письменная традиция). - Т., 2010.
3. Ташматова А. “Сўғдиёна” давлат халқ чолғулари камер оркестри. - Т., 2016.

II – BOB BO‘YICHA TESTLAR:

1. “Sirli tun” asari qachon yozilgan?
 - a) 2004-yilda
 - b) 1980-yilda
 - c) 1970-yilda
 - d) 2000-yilda
2. “Sirli tun” asarining boshlang‘ich qismi qanday sur‘atda yozilgan?
 - a) Kon brio
 - b) Rubato
 - c) Tempa prima
 - d) Con fuoko
3. “Sirli tun” asarida shamolning birdan kuchayishini qaysi cholg‘ular ifoda etadi?
 - a) Doyra va uchburchak
 - b) Buben va uchburchak
 - c) Doyra va baraban
 - d) Ruboblar va dutorlar
4. “Sirli tun” asarida kompozitor qanday yozuv texnikasini qo‘llaydi?
 - a) Seriallikni
 - b) Dodekogrammani
 - c) Aleatorikani
 - d) Kop qisimlilikni
5. “Sirli tun” asarining 7 taktidan qaysi cholg‘ular aleatorik figuratsiyalarni ijro etadi?
 - a) Nay, qo‘shnay, chang, qonun va torli cholg‘ular
 - b) G‘ijjaklar
 - c) Zarblilar
 - d) Damlilar
6. “Sirli tun” asarida qaysi cholg‘u sozandalar ovoziga jor bo‘ladi?
 - a) Nay
 - b) Ud
 - c) Klarnet
 - d) Tarelka
7. “Sirli tun” asarida yakkanavoz kodensiyasi asarning qanday qirralarini ochib beradi?
 - a) Konsertga oid
 - b) Variatsiyaga oid
 - c) Fugaga oid
 - d) Sonataga oid

8. “Sirli tun” partiturasida kompozitor qanday ijro usullarini qo‘llagan?
- a) Trellar, glissando hamda sozandalarning ovoz orqali jo‘r bo‘lishi
 - b) Stakkatolar
 - c) Jo‘rnavoqlik
 - d) Yakkanavoqlik
9. “Xa, Xu, Xa, Xa, Xu” so‘zlari qaysi cholg‘ular *glissandosi* bilan birin-ketin ijro etilgan?
- a) G‘ijjaklar
 - b) Chang va qonun
 - c) Naylar
 - d) Zarblilar
10. “Sirli tun” asarining yakunlovchi qismida qaysi cholg‘uning mohirona kadensiyasi e’tiborni o‘ziga jalb etadi?
- a) Nayning
 - b) Dutorning
 - c) Changning
 - e) Dutor-kontrabasning
11. “Dutor fantaziyasi” nechanci yilda yozilgan?
- a) 2005-yilda
 - b) 1995-yilda
 - c) 1998-yilda
 - d) 2000-yilda
12. “Dutor fantaziyasi” asari qaysi xalq kuyi asosida yozilgan?
- a) Arab kuyi
 - b) Turkman kuyi
 - c) Hind kuyi
 - d) Tojik kuyi
13. “Dutor fantaziyasi” asari qaysi jamoa uchun yozilgan?
- a) So‘g‘diyona
 - b) Navroz
 - c) Turkiston
 - d) O‘zbekiston solistlari
14. “Dutor fantaziyasi” asarida qanday cholg‘ular yakkanavoqlik qiladi?
- a) Chang va qonun
 - b) An’anaviy dator va dator-alt
 - c) Doyra va uchburchak
 - d) Nay va qo‘shnay
15. “Dutor fantaziyasi” asarida qaysi tamoyil ustun turadi?
- a) Ritmik usul bo‘linishi
 - b) Sonata usuli

- c) Variantli improvizatsiya
 - d) Fuga usuli
16. “Dutor fantaziyasi” asarining kichik kirish qismida qaysi cholg‘u yakkanavoz vazifasini bajaradi?
- a) Dutor-alt
 - b) Qashqar rubobi
 - c) Chang
 - d) Qonun
17. “Dutor fantaziyasi” asarining 2-raqamida musiqa qanday xarakterga ega bo‘ladi?
- a) Qo‘shiq
 - b) Raqs
 - c) Qahramonlik
 - d) Potetika
18. “Dutor fantaziyasi”ning 2-raqamida dinamik usulni qaysi cholg‘u yaratadi?
- a) G‘ijjak solasi
 - b) Nay solasi
 - c) Klarnet solasi
 - d) Tabla solasi
19. “Dutor fantaziyasi” asarida ijrochilikning murakkabligi nimada?
- a) Usul va ritmlarning o‘zgarishi
 - b) Agogika
 - c) Glissando
 - d) Zamin tovushlar
20. Habibulla Rahimovning qaysi asari tojik kuyi asosida yozilgan?
- a) Dutor fantaziyasi
 - b) Sirli tun
 - c) Bayramona
 - d) Sakura
21. “To‘y hangomasi” asari nechanchi yilda yozilgan?
- a) 2000-yilda
 - b) 2005-yilda
 - c) 1996-yilda
 - d) 1998-yilda
22. “To‘y hangomasi” asarining janri?
- a) Poema
 - b) Simfoniya
 - c) Rapsodiya
 - d) Fantaziya

23. "To'y hangomasi" asarining shakli?
- Sonata
 - Variatsiya
 - Erkin
 - Preludiya va fuga
24. "To'y hangomasi" asarida qaysi cholg'ular asar shakilni ifodalovchi ahamiyatga ega?
- Chang va qonun
 - Nog'ora va tanbur
 - Nay va qo'shnay
 - G'ijjak I va II
25. "To'y hangomasi" asarida boshlang'ich mavzu ijrosi qaysi cholg'uga berilgan?
- Qo'shnay
 - Chang
 - Qonun
 - Sunray
26. "To'y hangomasi" asarining 3-raqamida qaysi cholg'u yakkanovozlik qiladi?
- Dutor
 - Qo'shnay
 - Sunray
 - Chang
27. "To'y hangomasi" asarining 7-raqamida kompozitor qanday ritmik tuzilmadan foydalanadi?
- Poliritmiya
 - Lombard ritmi
 - Punktir ritmi
 - Ostenato ritmi
28. "To'y hangomasi" asari nechanchi raqamda kulminatsiyaga erishadi?
- 5-raqamda
 - 3-raqamda
 - 7-raqamda
 - 4-raqamda
29. "To'y hangomasi" asari kulminatsiyasida kompozitor qanday yozuv texnikasidan foydalandi?
- Aleatorika
 - Kombinatorika
 - Puantalizm
 - Ostenato
30. "To'y hangomasi" asarining qaysi raqamida sozandalar "Xa,

Xa” so‘zini ishlatadi?

- a) 5-raqamda
- b) 7-raqamda
- c) 6-raqamda
- d) 8-raqamda

31. “XX asr sadosi” asari qachon yozilgan?

- a) 2007-yilda
- b) 2000-yilda
- c) 1991-yilda
- d) 1995-yilda

32. “XX asr sadosi” asarini yaratish g‘oyasi kimga taalluqli?

- a) Feruza Abdurahimovaga
- b) Anvar Liviyevgga
- c) Botir Rasulovga
- d) Karim Azimovga

33. Qaysi asarda birinchi bo‘lib yozuv mashinkasi qo‘llanilgan?

- a) I.Stravinskiy “Pulchipella”
- b) E.Sati “Parad”
- c) D.Gerivich “blyus stilidagi rapsodiya”
- d) Habibulla Rahimovning “Bayramona”

34. “XX asr sadosi” asarida yozuv mashinkasi partiyasini birinchi bo‘lib kim ijro etgan?

- a) Alisher Uzoqov
- b) Nabi Abduraimov
- c) Shuhrat Nuraliyev
- d) Odil Nazarov

35. “XX asr sadosi” asarida yozuv mashinkasi partiyasining ikkinchi ijrochisi?

- a) Shuhrat Nuraliyev
- b) Nabi Abduraimov
- c) Odil Nazarov
- d) Alisher Uzoqov

36. “XX asr sadosi” asarida qaysi noodatiy “cholg‘u” yakkana-vozlik qiladi?

- a) Yozuv mashinkasi
- b) Koptok
- c) Raketka
- d) Taburetka

37. “XX asr sadosi” asari necha qismli shaklda yozilgan?

- a) 3 qismli
- b) 5 qismli
- c) 2 qismli

- d) 4 qismli
38. Telefondagi qong'iroq ovozini kompozitor qaysi cholg'u orqali amalga oshiradi?
- a) Chang
 - b) Qonun
 - c) Nay
 - d) G'ijjak
39. "XX asr sadosi" asarida o'rta qism nechanchi raqamdan boshlanadi?
- a) 7-raqamdan
 - b) 5-raqamdan
 - c) 6-raqamdan
 - d) 8-raqamdan
40. "XX asr sadosi" asarida repriza nechanchi raqamdan boshlanadi?
- a) 8-raqamdan
 - b) 6-raqamdan
 - c) 7-raqamdan
 - d) 9-raqamdan
41. "Sakura" asarida yapon temasi qaysi cholg'ularda ijro etiladi?
- a) Nay va qo'shnay
 - b) Chang va qonun
 - c) G'ijjak I va II
 - d) Qashqar va afg'on rubob
42. "Sakura" asarida boshlang'ich ko'rinishda Sakura kuyi qanday ifodalangan?
- a) Akkomponiment tarzida
 - b) Unison tarzda
 - c) Polifoniya tarzida
 - d) Vertical tarzda
43. "Sakura" asarida yapon kuyi necha taktdan iborat?
- a) 4 takt
 - b) 8 takt
 - c) 14 takt
 - d) 6 takt
44. "Sakura" asari qanday shaklda yozilgan?
- a) Variatsiya
 - b) Sonata
 - c) Fuga
 - d) Rondo
45. "Sakura" kuyining tizimi ?
- a) Xromatik
 - b) Polifonik

- c) Akkord
 - d) Diatonik
46. "Sakura" kuyining tuzilishi?
- a) Mavzu rivojining qaytarilish birikmasida
 - b) "ABAB" strukturasi
 - c) "AABB" strukturasi
 - d) qaytarishsiz rivojlantirish
47. "Sakura" asarining 4-raqamida qanday rivojlanish usuli qo'llanilgan?
- a) Chang va qonun cholg'usining bir-birini to'ldirib borish usuli
 - b) G'ijjak I va II *glissandos*i
 - c) Dinamikaning kuchayib borish usuli
 - d) Dutor-alt va dator-basning jornavozlik usuli
48. H. Rahimovning qaysi asarida yapon kuyi qo'llanilgan?
- a) Arirang
 - b) Sakura
 - c) To'y hangomasi
 - d) Bayramona
49. "Sakura" asarining 4-raqamida nechanchi variatsiya boshlanadi?
- a) birinchi
 - b) uchinchi
 - c) to'rtinchi
 - d) ikkinchi
50. "Sakura" asarining koda qismida asosiy mavzuni qaysi cholgular ijro etadi?
- a) Nay va qo'shnay
 - b) Chang va qonun
 - c) Afg'on va qashqar rubob
 - d) G'ijjak I va II

Xulosa

Habibulla Rahimovning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining katta va kichik tarkiblari uchun yaratilgan asarlarini tahlil qilarkanmiz ularning har biri yuqori badiiy saviyada yozilganligining guvohi bo‘lamiz. Turli janrlarda yaratilgan durdona asarlar cholg‘u ijrochiligi san’atining beqiyos imkobiyatlarini namoyon etib, sozanda va dirijyorlarga ijro uchun bebaho manba yaratadi. Orkestrlar uchun yozilgan asarlar mazmun-mohiyatining to‘laqonli yoritilishida mustaqillikning o‘rni beqiyosdir.

Mustaqillik sharofati bilan fanning barcha jabhalari singari, ijodiy faoliyat turlari, shu jumladan kompozitorlik ijodiyotida ham sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining katta va kichik tarkiblari uchun yangi tendensiyalar, janrlar, shakllar, uslub va ijro usullari paydo bo‘ldi. Taniqli kompozitor Habibulla Rahimovning turli janrdagi asarlarida zamonaviy yozuv texnikasi va ijro usullaridan keng foydalangan holda yaratgan durdona asarlari, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining boshqa san’at turlari ichida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini yana bir karra isbotladi. Bularning barchasi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari uchun innovatsion asarlarning yaratilishi, qolaversa O‘zbekistonda ushbu san’at turiga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi.

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1997.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1994.
3. Каримов И. Юксак манавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008.
4. Абдурахимова Ф. Маданиятларнинг жонли мулоқоти // Teatr, 2004, №4.
5. Abdurahimova Ф. Orkestr sinfi. Toshkent, “G‘.G‘ulom” nashriyoti, 2012.
6. Abdurahimova Ф. Orkestr sinfi. Toshkent, “Musiq” nashriyoti, 2015.
7. Азимов К. Ўзбекистон дирижёрлари. Тошкент, “MAGIKA” MCHJ, 2001.
8. Акмалжоновна М. Дутор оркестри. “F. Gulom” нашриёти, Тошкент, 2004.
9. Алимов Ф. Ёш дирижёрлар учун қўлланма. Тошкент, “Янги нашр”, 2008.
10. Алимов Ф. Ўзбек халқ чолғу оркестри. Тошкент, “Муסיқа”, 2004.
11. Аҳмедов. М. Дони Зокиров. Тошкент, Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1995.
12. Вызго Т, Абдурахимова Ф. Оркестр народных инструментов в Средней Азии и Казахстане на современном этапе: проблемы и перспективы // Роль оркестров народных инструментов в межнациональной общении. Москва, 1999.
13. Габитова А. История в контексте современной музыки на примере “Мозийдан садо” А.Мансурова // Ўзбекистон санъати: анализ ва ижодий изланишлар. Ташкент, 2007.
14. Гафурбеков Т, Абдурахимова Ф. Восток – Запад. Музыкальный диалог // Общественное мнение. Права человека. Ташкент, 2000, №4
15. Жабборов А. Ўзбекистон бастакорлари ва муסיқашунослари. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2004.
16. Liviyeв А. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. Toshkent, “ARNAPRINT” MCHJ, 2005.
17. Ливиев А. Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан (устная и письменная традиции). Ташкент, ООО «Ofset Print», 2010.
18. Лутфуллаев А. Исполнительское искусство на узбекских народных инструментах в годы независимости // Процессы реформирования системы музыкального образования. Ташкент, 2009.
19. Лутфуллаев А. История исполнительства на узбекских народных инструментах. Ташкент, 2010.
20. Мамаджанова Э. Творчество композиторов Узбекистана для Государственного камерного оркестра народных инструментов «Согдиана» // Вопросы музыкального исполнительства. Выпуск VI, Ташкент, 2009.
21. SO‘G‘DIYONA: Ijod tilsimi. Toshkent, NISHON-NOSHIR, 2013.

22. Ташматова А. Бухорои –Шариф. Тошкент, “Фан”, 2007.
23. Tashmatova A. Navro‘z xalq cholg‘ulari kamer orkestri // San’at, 2014, №1.
24. Ташматова А. Новые тенденции в музыке для оркестров узбекских народных инструментов // Музыкальный и духовный мир современной молодёжи. Ежегодник. Т., 2008.
25. Ташматова А. Об идентичности узбекских и японских музыкальных инструментов // Узбекистан и Япония: диалог культур. Ташкент, 2013.
26. Ташматова А. О музыкальной композиции «Диалесса» М.Атаджанова // Сборник материалов Республиканской конференции на тему «Развитие музыкального искусства в условиях независимости» Ташкент, 2011.
27. Ташматова А. Оркестр керакми? Албатта! // Мулоқот. Тошкент, 2000, №6.
28. Ташматова А. Сўғдиёна оркестри // Гулистон.1998, № 1;
29. Ташматова А. “So‘g‘diyona” o‘zbek davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri // San’at, 2001, № 4;
30. Ташматова А. Ташкент в сочинениях для оркестра народных инструментов // Художественный творческий процесс в XX-XXI веках. Ташкент, 2010.
31. Ташматова А. Дони Зокиров номидаги давлат халқ чолғулари оркестри. Нишон-Ношир, Т., 2015.
32. Ташматова А. “Сўғдиёна” давлат халқ чолғулари камер оркестри. Тафаккур қаноти, Т., 2016.
33. Умаров Ш. Дирижёрлик. Тошкент, “Муסיқа”, 2011.

TEST JAVOBLARI

I bob bo'yicha:

№	Javob	№	Javob	№	Javob	№	Javob
1.	a	18.	b	35.	b	52.	a
2.	d	19.	a	36.	c	53.	b
3.	a	20.	a	37.	a	54.	d
4.	c	21.	c	38.	d	55.	a
5.	d	22.	a	39.	a	56.	c
6.	a	23.	a	40.	b	57.	d
7.	b	24.	d	41.	a	58.	b
8.	a	25.	b	42.	c	59.	a
9.	c	26.	c	43.	d	60.	c
10.	a	27.	a	44.	a	61.	a
11.	d	28.	d	45.	b	62.	c
12.	a	29.	a	46.	a	63.	d
13.	a	30.	b	47.	d	64.	b
14.	c	31.	a	48.	b	65.	a
15.	b	32.	c	49.	c	66.	c
16.	a	33.	d	50.	a	67.	a
17.	a	34.	a	51.	a	68.	d

II bob bo'yicha:

№	Javob	№	Javob	№	Javob	№	Javob
1.	a	14.	b	27.	a	40.	d
2.	b	15.	c	28.	c	41.	a
3.	d	16.	a	29.	a	42.	b
4.	c	17.	b	30.	d	43.	c
5.	a	18.	d	31.	a	44.	a
6.	d	19.	a	32.	a	45.	d
7.	a	20.	a	33.	b	46.	a
8.	a	21.	b	34.	c	47.	a
9.	b	22.	a	35.	d	48.	b
10.	c	23.	c	36.	a	49.	d
11.	a	24.	b	37.	a	50.	a
12.	d	25.	d	38.	c		
13.	a	26.	a	39.	a		

GLOSSARIY

Akkord (ital. accord, frans. accord. lot. Accord - birdamlik) – uch va undan ortiq tovushlarning bir vaqtda yangrashi.

Bastakor (fors-tojik. basta-bog‘lov, kor-ish) - kuy yaratuvchi.

Diapazon (yun. diapason – hamma torlardan o‘tib) – ovozda, cholg‘uda, musiqa asarida tovush ko‘lami chegaralari (eng pastki va eng yuqori tovushlar oralig‘i).

Dinamika (yun. Dinamis-kuch) - tovushlarning kuchli-kuchsiz ijrosi. Italian atamallari bilan belgilanadi: piano (p) – mayin, kuchsiz, forte (f)- qattiq, kuchli, kreshendo (<) - asta-sekin kuchaytirib, diminuendo (>)- asta-sekin pasaytirib.

Dirijyor (frans. Diriger-yo‘lga solish, boshqarish) - orkestr, xor, ansambl va boshqalarga musiqachi-rahbar. Musiqa asarlarini ijro etishda, asosan, maxsus qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib boshqaradi.

Janr (frans. genre, lot. genus – tur, xil, urug‘) – musiqiy asarlar turlarini ifodalovchi ko‘p manoli tushuncha. Masalan: musiqali drama, opera, balet, simfoniya, fantaziya, raqs va boshqalar.

Improvizatsiya, badiha (lot. Improvises - to‘satdan, kutilmagan, tasodifiy) – ijro etish paytining o‘zida musiqa to‘qish. Musiqa ijrochiligi va musiqa bastalashning eng qadimgi turi bo‘lib, nota yaralishidan oldin, og‘zaki ijodkorlikda, hozirgi zamon jaz san‘atida muhim o‘ringa ega.

Kadenziya (ital. cadenza, lot. cado – tushmoq, tugallanmoq) vokal yoki cholg‘u asarida virtuoqlik, yuqori mahorat bilan yakka tarzda ijro etilgan parcha.

Koda (ital. coda, lot. cauda - dum) – musiqa asarining tonalligi va mazmun-g‘oyasini tasdiqlovchi qo‘shimcha xotima qismi.

Kompozitor (lot. Compositor – tuzuvchi, ijod etuvchi) musiqiy asar muallifi, yaratuvchi ijodkor.

Konsert (lot. Concerto - musobaqalashaman) – 1. Oldindan e‘lon qilingan dastur asosida musiqa asarlarining omma uchun ijro etilishi. 2. Musiqiy janr, asar.

Monodiya (yun. Mono – bir, ode - qo‘shiq) – bir ovozlik zaminida bo‘lgan musiqa san‘ati.

Partitura (ital. partitura – ajratish, taqsimlash) - ko‘povozli musiqa asarining (orkestr, xor, ansambl uchun) nota yozuvi.

Pentatonika (yun. pente – besh, tonus - ton) – oktava oralig‘ida uchta butun ton va bitta yarim tonlardan iborat bo‘lgan besh pog‘onali tovushlar tizimi.

Tembr (frans. timbre) - tovush sifati, tusi, bo‘yog‘i. tovush, ovoz tembrlar farqi - ular bilan birga sodir bo‘ladigan oberton (qo‘shimcha tovushlar) miqdori, sifati va tovush hosil bo‘ladigan joyi (formantalari)ga bog‘liq bo‘ladi.- q. Obertonlar.

Temp, sur‘at (ital. tempo, lot. tempus -vaqt) – musiqiy asar ijrosining tezlik darajasi. Nota yozuvida 17 – a. dan boshlab italyancha atamalar qabul qilingan.

Asosiy sur'atlar, tezlanish tartibida: grave, largo, adajio, lento (sekin sur'atlar); andante, moderato (o'rtacha sur'atlar); animato, allegro, vivo, presto (tez sur'atlar). Sur'atni aniq o'lchash uchun metronom uskunasi ishlatiladi.

Ton (yun. tonos –keskinlik, kuchlanish) – tovushning fizik, psixologik, musiqiy hususiyati. Musiqada ton deb: ikkita tovushning oralig'i, masofasi; tovushqator, lad, gamma pog'onasi; akkord tovushi; kuy, sado, nutq ohangi, bo'yog'i nazarda tutiladi.

Tonika (frans. Note tonigne, so'zma-so'z – tonikali notasi, ladning asosiy tovushi) - tonallikning markaziy ustuni, negizi. Ladning birinchi pog'onasi, bosh notasi. Tonikaga, undan tuzilgan major yoki minor asosiy uchtovushligiga ladning hamma unsur va funksiyalari bo'ysunadi, u bilan bog'liq bo'ladi.

Tonallik – ladning past balandlik bo'yicha joylashuvi. Tonlar munosabati, bularning og'ishi, dissonans va konsonansligi, turg'unlik va noturg'unligi, ularning hammasi asosiy markaz (tonika)ga bo'ysunganligi zaminida tonallikni bildiradi. Tonallik ko'rinishi, nomi, kalit belgilari kvinta doirasi asosida belgilanadi.

Transpozitsiya (lot. transposition – joyini o'zgartirmoq) –tovushlarni (musiqqa asarini) boshqa balandlikka (tonallikka) ko'chirish.

Unison (ital. unison, lot. unus – bir, sonus - tovush) umumiy bir ovozlik. Musiqada barcha ijrochilar tomonidan bir xil kuyning baravar yangrashi. Oktavali unison ham mavjud – har xil oktavalarda bir xil nota matnining baravar yangrashi, ijro etilishi.

Uchburchak (ital. triangolo) – jismi sadolanadigan uchburchak shaklidagi po'latdan yasalgan urma cholg'u. q. Idilafonlar

Folklor (ingl. Folk – xalq, lore – bilim, donolik) xalq ijodiyotini ifodalovchi atama.

MUNDARIJA

K I R I SH.....	3
-----------------	---

BIRINCHI BOB

HABIBULLA RAHIMOVNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRINING KATTA TARKIBI UCHUN YARATGAN ASARLARI

1.1. “Qo‘shyor”	5
1.2. “Arabcha poema-konsert”	7
1.3. “Yaponcha raqs”	9
1.4. “Arabcha raqs”	11
1.5. “Oydin kecha	13
1.6. “Arirang”	15
1.7. “Arirang jozibalari”	19
1.8. “Bayramona”	20
1.9. “Shahrizoda hikoyalari”	22
1.10. “Orzu”	25
1.11. “Tong navosi”	27
1.12. “Gullar raqsi”	28
1.13. “Oqshom sabolari”	31
1.14. “Toshkent fasllari”	33
Testlar	42

IKKINCHI BOB

HABIBULLA RAHIMOVNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI KAMER ORKESTRI UCHUN YARATGAN ASARLARI

2.1. “Sirli tun”	51
2.2. “Dutor fantaziyasi”	54
2.3. “To‘y hangomalari”	56
2.4. “XX asr sadosi”	59
2.5. “Sakura”	61
Testlar	64
XULOSA.....	72
FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR.....	73
TEST JAVOBLARI.....	75
GLOSSARIY.....	76

TASHMATOVA AZATGUL RAXIMOVNA

IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI

(H.Rahimov asarlari misolida)

Oliy ta'lim muassasalari uchun
o'quv qo'llanma

«Musiqqa» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir *A.Xudoyberiyev*
Musahhah *N. Ismoilova*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12 noyabr.

«Musiq» nashriyoti, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi 1.

Bosishga ruxsat etildi 28.04.2017